BIR BO‘LSAK — YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK — VATANMIZ!

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 145 (1206), 2024-yil 20-iyul, shanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

OLIY MARTABALI MEHMONLAR ISLOM DUNYOSINING TURIZM POYTAXTI QADIM XIVADA ME’MORIY OBIDALAR BILAN TANISHDILAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov 18-19-iyul kunlari davlat tashrifi bilan mamlakatimizda bo‘ldi.

Toshkentda o‘tgan oliy darajadagi muzokaralarda ikki do‘st mamlakat xalqlari manfaatiga xizmat qiladigan ko‘plab kelishuvlarga erishildi. Davlat rahbarlari keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini yanada chuqurlashtirish va kengaytirish to‘g‘risida Qo‘shma bayonotni imzoladilar. Umuman, tashrif davomida 16 ta hujjat imzolandi. Energetika, avtomobilsozlik va to‘qimachilik sanoatida yirik qo‘shma loyihalarga start berildi.

O‘zbekiston va Qirg‘iziston yetakchilarining samimiy muloqoti 19-iyul kuni Xorazmda davom etdi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev va Qirg‘iziston Prezidenti Sadir Japarov ikki mamlakat birinchi xonimlari bilan birgalikda dastlab Xiva shahridagi Ichan qal’a majmuasi va Nurillaboy saroy majmuasiga tashrif buyurdi.

Xiva shahri 1990 yilda UNESCOning Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan, 1997-yilda uning 2500 yilligi nishonlangan. Shahar 2020-yilda Turkiy dunyoning madaniy poytaxti, 2024-yilda esa Islom dunyosining turizm poytaxti bo‘ldi.

“Ochiq osmon ostidagi muzey” sifatida tanilgan Xiva yaxlit yodgorlik sifatida Markaziy Osiyoda saqlanib qolgan yagona shahar hisoblanadi. Bu yerda 120 dan ortiq me’moriy obidalar joylashgan.

Oliy martabali mehmonlar tanishuvni “Ota darvoza”dan boshlab, noyob “Ko‘hna ark” majmuasi, Sherg‘ozixon madrasasi, Juma masjidi, “Toshhovli” majmuasi va boshqa obidalar bilan tanishdi.

Mehmonlar sharafiga o‘zbek xalq qo‘shiqlari yangrab, teatrlashtirilgan tomosha namoyish etildi.

Shundan so‘ng Nurillaboy saroyiga tashrif buyurildi.

Saroy-bog‘ majmuasi XX asr boshlarida bunyod etilgan. Majmua madrasa, 100 dan ortiq xonalar, galereyalardan iborat. Saroy xonalarini bezashda xivalik mohir ustalar bilan birga chet ellik rassom-dekoratorlar ham ishtirok etganlar, ular saroyning sharqona qiyofasiga Yevropaning modern uslubini singdirganlar.

Xiva tarixi va uning fan rivojiga qo‘shgan hissasi, shuningdek, hududning boy madaniyati va san’ati haqidagi hikoyalar qirg‘izistonlik mehmonlarda katta taassurot qoldirdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev va Prezident Sadir Japarov “Xiva gilamlari” kombinatida bo‘ldi.

2020-yilda tashkil etilgan mazkur korxonada yiliga 4,2 million kvadrat metr gilam va gilam mahsulotlari ishlab chiqarilib, Xitoy, Rossiya, AQSH, Qozog‘iston va MDHning boshqa mamlakatlariga eksport qilinmoqda.

Yevropaning yetakchi davlatlari texnologiyasi bilan jihozlangan zamonaviy kombinatda bugungi kunda 750 kishi mehnat qilmoqda.

Prezidentlar korxonaning ishlab chiqarish jarayoni va shourumini, shuningdek, kombinat hududida tashkil etilgan “Made in Uzbekistan” brendi ostidagi sanoat mahsulotlari ko‘rgazmasini ko‘zdan kechirdilar.

Tegishli vazirlik va idoralarga o‘zaro tajriba almashish, kooperatsiya va savdoni rivojlantirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Tashrif tadbirlari yakunlangach, Prezident Shavkat Mirziyoyev rafiqasi bilan Urganch xalqaro aeroportida Prezident Sadir Japarov va rafiqasini kuzatib qo‘ydi.

O‘zA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

Xalqaro e’tirof

Salim bin Muhammad al-Malik:

“O‘ZBEKISTON – BARAKALI ZAMIN, MA’NAVIYAT XAZINASI, ISLOM SIVILIZATSIYASINING BUYUK MEROSI SOHIBIDIR”

Islom dunyosi ta’lim, fan va madaniyat tashkiloti (ICESCO) Bosh direktori Salim bin Muhammad al-Malik “Dunyo” axborot agentligiga intervyu berdi

— Bosh direktor janoblari, bilamizki, O‘zbekistonga bir necha bor tashrif buyurgansiz. Bugungi suhbatimizni mamlakatimiz haqidagi fikrlaringiz bilan boshlasak. O‘zbekistonni qanday tasavvur qilasiz, uning tarixi, madaniyati, zamonaviy taraqqiyoti va xalqaro maydondagi o‘rnini qanday baholaysiz?

— Bismillahir rohmanir rohiym. Men O‘zbekistonga kelganimda har safar o‘zim uchun yangidan yangi qirralarni kashf etaman. Boy tarix va betakror madaniy merosga ega ushbu o‘lkadan zavq olaman. Binobarin, ushbu jihatlar mamlakatning asosiy ramzlaridan biri — davlat bayrog‘idagi yorqin ranglarda ham o‘z aksini topgan.

O‘zbekiston bayrog‘ining ilhom baxsh etuvchi ranglarini ko‘zdan kechirayotganimda, bu bayroq oddiy tug‘ emasligiga, u o‘zida chuqur ma’nolarni ifodalovchi muqaddas ramzligiga amin bo‘ldim. Bayroq faxrli voqealarga boy davlat tarixiga tayanadigan ramziy ranglarni ifodalovchi risoladir. Bu zaminning yerlari unumdor va barokatlidir. Xalqi esa tinchlik va osoyishtalik ne’matini yuksak qadrlaydi.

O‘zbekiston bayrog‘idagi moviy rang mangu osmon va obihayot timsolini aks ettiradi. Bu rang, shuningdek, hayotning davomiyligi, xalqning umid va intilishlarini o‘zida ifodalagan.

Oq rang esa o‘zbek xalqining tinchlik, adolat va taraqqiyotga intilishini tasdiqlaydi. Bayroqdagi yashil rang Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) haqidagi sahih hadislarda rivoyat qilingan samoviy — Sirdaryo va Amudaryoning unumdorligidan dalolatdir.

Davomi 2-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

QARORI

SIYOSIY QATAG‘ON QURBONI BO‘LGAN YURTDOSHLARIMIZ HAYOTI VA FAOLIYATINI O‘RGANISH, TARG‘IB ETISH HAMDA ULARNING XOTIRASINI ABADIYLASHTIRISH BORASIDAGI ISHLARNI KENGAYTIRISH TO‘G‘RISIDA

Ma’lumki, 1937-1953-yillarda mustabid tuzum tomonidan 100 mingdan ziyod xalqimiz vakillari qatag‘on siyosatining qurboni bo‘lgan. Bu yurtdoshlarimizning 13 ming nafari otib tashlangan, minglab kishilar nohaq quloq qilingan, surgunlarga jo‘natilgan. Ular orasida atoqli davlat va siyosat arboblari, ilm-fan namoyandalari, ijodkor ziyolilar, diniy ulamolar, harbiy soha va sud-huquq tizimi xodimlari, ishchi-dehqonlar va ularning oila a’zolari bo‘lgan.

Vatanimizning milliy istiqloli, xalqimiz ozodligi uchun kurashib, shu yo‘lda jonini fido etgan, siyosiy qatag‘on qurbonlari bo‘lgan ota-bobolarimizning hayoti va faoliyatini atroflicha o‘rganish va tadqiq etish, ularning nomlari va xotirasini abadiylashtirish bo‘yicha keyingi yillarda yurtimizda keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, 2021-2024-yillar davomida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan **1 ming 200 dan ziyod siyosiy qatag‘on qyrbonlarining nomlari oqlanganini alohida qayd etish lozim.**

Hozirgi murakkab va tahlikali davrda mustaqilligimizni har tomonlama mustahkamlash, tariximizning noma’lum sahifalarini tiklash va ilmiy nuqtayi nazardan chuqur o‘rganish, inson, uning huquq va erkinliklarini oliy qadriyat sifatida e’tirof etish, shu asosda yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlodning Vatan taqdiri va kelajagiga daxldorlik tuyg‘usini, fuqarolik pozitsiyasini kuchaytirish, ularni bugungi tinch, erkin va ozod hayotning qadriga yetish ruhida tarbiyalash maqsadida:

1. Siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimizning hayoti va faoliyatini o‘rganish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish ishlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha **respublika komissiyasi (keyingi o‘rinlarda — Respublika komissiyasi) 1-ilovaga muvofiq tarkibda tashkil etilsin.**

2. Quyidagilar Respublika komissiyasining **asosiy vazifalari etib belgilansin:**

Davomi 2-betda

Inson qadri uchun

ADOLATGA ELTUVCHI YO‘L

Odamzod hamisha adolatga intilib yashaydi. Adolat tantanasida mo‘jiza qudratini ko‘rgandek bo‘ladi. Mo‘jiza esa o‘z-o‘zicha sodir bo‘lmaydi. Uning zamirida hamisha xalq dardu tashvishlarini yengillatishga bel bog‘lagan insonlarni birlashtirgan yaxlit tizim, kuchli, aniq va qat’iy mexanizm ishlab turgan bo‘ladi.

Shu ma’noda, davlatimiz rahbari asos solgan Xalq qabulxonalari instituti “Davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” g‘oyasining samarali hayotiy mexanizmi, ijtimoiy adolatni ta’minlash borasidagi o‘zbek davlatchilik maktabining yangi taraqqiyot bosqichi bo‘lmoqda deyish mumkin.

Prezidentimizning siyosiy irodasi bilan barcha tizim faoliyati xalqimizni hayotdan rozi qilishdek ezgu maqsadga yo‘naltirilgani tufayli keyingi yetti yilda qariyb 10 millionga yaqin murojaatning 70 foizi qanoatlantirildi. Yillar dinamikasida murojaatlar hal qilinishi 11,5 foizdan 85,7 foizgacha yetkazildi.

Davomi 3-betda

Mamlakatda ijtimoiy taraqqiyotning bu muhim masalalariga qanchalik har tomonlama va oqilona yondashilayotganining shohidi bo‘lib turibmiz. Davlatingiz rahbari ma’naviyat — tarixiy binoning gumbazi, munosib kelajak poydevori ekanini yaxshi tushunadi. U asrlar davomida millionlab insoniy taqdirlar asosida shakllangan.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 20-iyul, 145-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

QARORI

SIYOSIY QATAG‘ON QURBONI BO‘LGAN YURTDOSHLARIMIZ HAYOTI VA FAOLIYATINI O‘RGANISH, TARG‘IB ETISH HAMDA ULARNING XOTIRASINI ABADIYLASHTIRISH BORASIDAGI ISHLARNI KENGAYTIRISH TO‘G‘RISIDA

Boshlanishi 1-betda

qatag‘on qurboni bo‘lgan shaxslarning hayoti va faoliyatini o‘rganish, ularni nomma-nom aniqlash, tarixiy xizmatlari haqidagi ma’lumotlarni, arxiv va muzeylar, kutubxonalar va turli fondlarda saqlanayotgan hujjatlarni **to‘plash va tadqiq etish, ommalashtirish uchun ishchi guruhlar faoliyatini tashkil etish;**

qatag‘on qurbonlarining avlodlari va yaqinlari, o‘sha davr voqealariga guvoh bo‘lgan insonlarning xotiralarini **yozib olish, oilaviy arxiv va kutubxonalarda saqlanayotgan tarixiy manbalarni, noyob suratlarni to‘plash bo‘yicha ishlarni muvofiqlashtirish;**

Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi, uning hududlardagi bo‘limlari hamda Jadidlar merosi davlat muzeyining mavzuga doir ma’lumotlar, ashyoviy dalil va hujjatlar, boshqa tegishli eksponatlar bilan muntazam ravishda **boyitib borilishini ta’minlash;**

qatag‘on qilingan yurtdoshlarimiz haqidagi tarixiy haqiqatni tiklash va kelgusi avlodlarga yetkazish maqsadida ko‘p jildlik **“Qatag‘on qurbonlari” kitobini chop etish hamda ularning nomlarini Toshkent shahridagi “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasida barpo etiladigan ramziy kitob sahifalariga kiritish ishlarini davom ettirish;**

chet eldagi turli fondlar, arxiv, muzey, kutubxona va boshqa ilmiy-ma’rifiy muassasalar hamda tegishli mutaxassislar bilan hamkorlik o‘rnatgan holda, mavzuga oid **ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etish;**

yosh avlodni Vatanimiz ozodligi yo‘lida jonini fido qilgan buyuk **ajdodlarimiz xotirasiga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning jasorati va ibratli faoliyatini targ‘ib etishga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yo‘lga qo‘yish.**

Respublika komissiyasining **ishchi organi etib Mudofaa vazirligining umumiy rahbarligida Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi, Fanlar akademiyasi Tarix instituti, Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi, Qurolli Kuchlar akademiyasi, Mudofaa va harbiy xavfsizlik muammolarini o‘rganish instituti, “G‘alaba bog‘i” yodgorlik majmuasi, “Shon-sharaf” davlat muzeyi mas’ul xodimlari va yetakchi mutaxassislaridan iborat guruh belgilansin.**

3. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Fanlar akademiyasi, Yozuvchilar uyushmasi, Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyining **har yili oktyabr oyining birinchi haftasini** mamlakatimizda **Siyosiy qatag‘on qurbonlarini yod etish haftaligi sifatida nishonlash to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.**

Respublika komissiyasi Qatag‘on qurbonlarini yod etish haftaligini munosib darajada o‘tkazish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqsin va ularning amalga oshirilishini ta’minlasin.

4. Qatag‘on qyrbonlari, jumladan, jadidlik harakati namoyandalarining ibratli hayoti va faoliyatini xalqimiz, ayniqsa, yoshlar orasida **yanada keng targ‘ib etish maqsadida:**

“Nuroniy” jamg‘armasi, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi “Shahidlar xotirasi” jamoat fondi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Yoshlar ishlari agentligi **xalqimizning mustaqillikka erishish yo‘lidagi ko‘p asrlik mardona kurashi, bu yo‘lda ciyosiy qatag‘onga uchragan yurtdoshlarimizning hayoti va faoliyati hamda ularning xotirasiga bag‘ishlangan ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot tadbirlari, davra suhbatlari, ta’lim muassasalari va mahallalarda uch avlod uchrashuvlarini tashkil etib borsin;**

Madaniyat vazirligi davlat buyurtmasi asosida **spektakllar, badiiy va hujjatli filmlar yaratsin;**

Yoshlar ishlari agentligi **audiovizual mahsulotlar tayyorlab, ularni internet tarmog‘ida ommalashtirsin, shuningdek, foydalanuvchilar o‘rtasida tyrli tanlov, musobaqa** va **aksiyalar o‘tkazsin;**

Fanlar akademiyasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan birgalikda Fanlar akademiyasi Tarix institutining “Jadidlar.uz” elektron platformasini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish va platformani yangi elektron adabiyotlar, tarixiy manbalar, jadid matbuoti namunalari va audiovizual mahsulotlar bilan boyitish choralarini ko‘rsin;

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ta’lim tashkilotlarida o‘tkaziladigan **“Mustaqillik darslari” doirasida qatag‘on qyrbonlari, jumladan, jadidlik harakati namoyandalariga bag‘ishlangan o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etsin;**

Turizm qo‘mitasi qatag‘on qurbonlarining nomlari bilan bog‘liq muzey va obyektlarni **sayyohlik yo‘nalishlariga kiritish chora-tadbirlarini ko‘rsin.**

5. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi, “Nuroniy” jamg‘armasi, “Shahidlar xotirasi” jamoat fondi bilan birgalikda **Respublika komissiyasining qarori asosida:**

qatag‘on qyrbonlari va jadidlik harakati vakillari bo‘lgan shaxslar tug‘ilib o‘sgan, yashagan xonadonlarni aniqlasin va **ularda esdalik lavhalarini o‘rnatsin;**

mahallalarda va umumta’lim maktablarida tegishli tarzda **“Qatag‘on qurbonlari xotirasi burchaklari”ni**, stendlar va boshqa ko‘rgazmali vositalarni tashkil etsin.

Mazkur bandda belgilangan vazifalar mahalliy budjetlar mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

6. Qatag‘on qyrbonlari, jumladan, jadidlik harakati namoyandalarining hayoti va faoliyati, ilmiy-ijodiy merosi, shuningdek, o‘sha davrdagi siyosiy-ijtimoiy jarayonlar bo‘yicha tadqiqotlar olib borish maqsadida:

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi mavzuga oid **ilmiy tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasining tanlovlar asosida shakllantirilishi hamda ilmiy loyihalarning amalga oshirilishini ta’minlasin;**

Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, “O‘zarxiv” agentligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Madaniy meros agentligi, Fanlar akademiyasi qatag‘on qyrbonlari va jadidlik harakati namoyandalarining ilmiy-ijodiy faoliyatiga tegishli nodir kitoblar, qo‘lyozma asarlar, tarixiy hujjatlar va boshqa materiallarni ta’mirlasin hamda raqamlashtirsin;

“O‘zarxiv” agentligi Davlat xavfsizlik xizmati bilan birgalikda davlat arxivlarida saqlanayotgan qatag‘on qyrbonlari va jadidlik harakati namoyandalariga oid muayyan **arxiv hujjatlarini belgilangan tartibda maxfiylikdan chiqarish choralarini ko‘rsin;**

vazirlik va idoralar qatag‘on qyrbonlari va jadidlik harakati namoyandalarining nomlarini aniqlash borasida izlanishlar olib borish uchun Respublika komissiyasi tavsiyasiga asosan, tegishli **idoraviy arxivlardan foydalanish imkoniyatini yaratsin;**

Tashqi ishlar vazirligi qatag‘on qyrbonlarining hayoti va faoliyatiga doir **chet ellardagi mavjud manbalarni izlab topish va o‘rganishda xorijdagi ilmiy-tadqiqot markazlari, nufuzli universitet va fondlar hamda soha mutaxassislari bilan yaqindan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishda amaliy yordam ko‘rsatsin.**

7. Madaniy meros agentligi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda shaxsiy va oilaviy arxivlarda saqlab kelinayotgan qatag‘on qyrbonlari faoliyatiga bevosita daxldor bo‘lgan **qo‘lyozma, kitob, surat va buyum shaklidagi tarixiy-madaniy ashyolarning davlat muzeylari fondlariga qabul qilib olinishini tashkil etsin.**

8. Qatag‘on qyrbonlari xotirasi davlat muzeyi Raqamli texnologiyalar vazirligi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi va uning hududlardagi bo‘limlari fondlarini muntazam boyitib borish, ularda yangi ekspozitsiya va ko‘rgazmalar tashkil etish hamda bu borada zamonaviy **raqamli texnologiyalar va multimedia vositalari**dan keng foydalanishni yo‘lga qo‘ysin.

9. Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy gvardiya, Davlat xavfsizlik xizmati, Bosh prokuratyra, Bojxona qo‘mitasi ushbu qaror bilan belgilangan vazifalarni bajarishda daxldor vazirlik, idora va tashkilotlarga har tomonlama yordam ko‘rsatilishini ta’minlasin.

10. Adliya vazirligi Bosh prokuratyra, Davlat xavfsizlik xizmati, Oliy sud, Ichki ishlar vazirligi, Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi, Fanlar akademiyasi hamda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi bilan birgalikda **ikki oy muddatda mustabid tuzum davrida siyosiy qatag‘onga uchragan shaxslarni reabilitatsiya qilish** tartibini nazarda tutadigan normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda kiritsin.

11. Iqtisodiyot va moliya vazirligi:

2025-yildan boshlab qatag‘on qurbonlari va jadidlik harakati namoyandalariga bag‘ishlangan tadbirlarni o‘tkazish, “Qatag‘on qurbonlari” xotira kitoblarini, kitob va albomlar, yo‘l ko‘rsatkichlarini tayyorlash, shuningdek, ko‘rgazmalar tashkil etish bilan bog‘liq xarajatlarni Davlat budjeti parametrlarini shakllantirishda inobatga olsin;

manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda **ikki oy muddatda Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyining tuzilmasini takomillashtirish, jumladan, uning tarkibida multimedia, nashriyot va matbaa bo‘linmalarini tashkil etish hamda muzey va uning hududiy bo‘limlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritsin.**

12. Siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimizning hayoti va faoliyatini o‘rganish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish bo‘yicha **chora-tadbirlar dasturi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.**

13. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalariga qatag‘on qurbonlarining hayoti va faoliyati, ularning ilmiy-ijodiy merosining mohiyati va tarbiyaviy ahamiyatini targ‘ib qilishga qaratilgan tadbirlarni keng yoritish, mavzuga oid teleko‘rsatuv va radioeshittirishlarni muntazam efirga uzatish hamda matbuot nashrlari va internet sahifalarida maqolalar e’lon qilib borish tavsiya etilsin.

14. Adliya vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonunchilikka ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

15. Ushbu qaror ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas’ul vazirlik va idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti **SH. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2024-yil 19-iyul

Xalqaro e’tirof

Salim bin Muhammad al-Malik: “O‘ZBEKISTON – BARAKALI ZAMIN, MA’NAVIYAT XAZINASI, ISLOM SIVILIZATSIYASINING BUYUK MEROSI SOHIBIDIR”

“O‘zbekistonning ma’naviy qadriyatlarni tiklash bo‘yicha tanlagan yo‘li madaniyat sohasida ham o‘zining naqadar to‘g‘riligini tasdiqladi, bunda davlat nafaqat bosh islohotchi, balki xayrixohga aylandi. Bugun biz bu ko‘mak naqadar konstruktiv bo‘lganini, san’at rivojiga qanday ulkan turtki berganini ko‘rib turibmiz.

Boshlanishi 1-betda

O‘zbek zaminida bilimga chanqoq, tinchlikka intiluvchi xalq yashaydi. U ma’rifatparvar xalqlar orasida munosib o‘rin egallashini azaldan isbotlab kelgan.

Albatta, O‘zbekiston — barakali zamin, ma’naviyat xazinasi, islom sivilizatsiyasining buyuk merosi sohibidir. Bugun esa biz innovator, Uchinchi Renessansga poydevor qo‘yayotgan, hamkorlikka ochiq, dunyoviy demokratik taraqqiyotga sodiqligini isbotlagan, zamon bilan hamnafas, o‘z madaniyatini tiklayotgan yangi O‘zbekistonni ko‘ryapmiz.

Mamlakatingizning bugungi kunda xalqaro maydondagi faol pozitsiyasi yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Tashkilotga kelsak, shuni alohida ta’kidlash joizki, so‘nggi 15 yil ichida Toshkent, Buxoro va Xiva Islom madaniyati poytaxtlari deb e’lon qilingani yurtingizning buyuk tarixiga yuksak hurmat va uning islom dini hamda madaniyati rivojiga qo‘shgan ulkan hissasi e’tirofidir.

— ICESCO O‘zbekistonning buyuk tarixini tiklash, boy tarixiy, madaniy va ma’naviy merosini dunyoga ochish, asrab-avaylash va kelajak avlodlar uchun yetkazish borasidagi sa’y-harakatlarini qanday baholaydi va bu jarayonda tashkilot qanday yordam ko‘rsatmoqda?

— O‘zbekistonda islom dinining insonparvarlik tamoyillarini targ‘ib qilish, ulug‘ muhaddislar ma’naviy merosini o‘rganish, ular xotirasini abadiylashtirish, yosh avlodni buyuk ajdodlar merosiga munosib holda tarbiyalash, diniy bag‘rikenglikni mustahkamlash, muqaddas qadamjolarni ziyorat qilish istagida bo‘lgan musulmonlar uchun keng imkoniyatlar yaratish borasida ulkan sa’y-harakatlar amalga oshirilayotganini ko‘rib turibmiz. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Bahouddin Naqshband kabi ulug‘ ajdodlaringiz nomlari O‘zbekiston va uning islom olamidagi idroki bilan uzviy bog‘liq. Bu ilohiyot olimlarini yetishtirgan muborak zamin bilan hamkorlikni rivojlantirish biz uchun katta sharafdir.

O‘zbekiston va ICESCO o‘rtasidagi yaqin hamkorlik tashkilot tomonidan 2007-yilda Toshkentni Islom madaniyati poytaxti deb e’lon qilinganidan boshlandi. O‘sha qutlug‘ sanadan buyon o‘zaro manfaatlar, hurmat-ehtirom asosida muqaddas dinimiz — dunyoviy va ma’rifiy islomni mustahkamlash yo‘lida samarali hamkorlik qilib kelyapmiz.

Tashkilotning barcha a’zolari Samarqand shahrining 2025-yilda Islom dunyosi poytaxti deb e’lon qilinishini qo‘llab-quvvatlaganidan mamnunmiz. Biz bu borada O‘zbekistonning turli tadbir va anjumanlar o‘tkazish bo‘yicha barcha tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashga tayyormiz.

— Yangi O‘zbekistonda ilm-fan va ta’lim rivojiga, jumladan, o‘zbek xalqining ma’naviy merosini o‘rganishga qaratilayotgan e’tibor haqida fikringiz ham biz uchun muhim.

— O‘zbekiston rahbari, muhtaram Prezident Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylarining jamiyatda ta’lim va ilm-fanning rolini oshirish, madaniyatni asrab-avaylash va yuksaltirishga qaratilgan sa’y-harakatlari hamda tashabbuslarini Alloh taolo barokatli qilsin.

Mamlakatda ijtimoiy taraqqiyotning bu muhim masalalariga qanchalik har tomonlama va oqilona yondashilayotganining shohidi bo‘lib turibmiz. Davlatingiz rahbari ma’naviyat — tarixiy binoning gumbazi, munosib kelajak poydevori ekanini yaxshi tushunadi. U asrlar davomida millionlab insoniy taqdirlar asosida shakllangan.

Puxta tahlil va ilmiy xolislik tufayli olimlarning sa’y-harakatlari, O‘zbekiston tarixining eng muhim sahifalari qayta ochildi, ko‘plab atoqli madaniyat, fan arboblari, o‘zbek xalqining buyuk ajdodlari nomlari qayta tiklandi. Avvalo, Sharq Uyg‘onish davrini boshlab bergan Amir Temur va Temuriylar davri o‘zining munosib bahosini oldi. Temuriylar davridagi ma’rifatli Movarounnahr ruhi, ilm-fan va madaniyatning gullab-yashnashi Yevropa Uyg‘onish jarayoniga katta ta’sir ko‘rsatdi va jahon tamadduniga xizmat qildi. Sohibqiron Amir Temur bugun nafaqat O‘zbekiston xalqining, balki butun insoniyatning faxridir.

Sharqning buyuk mutafakkirlari — Al-Buxoriy, At-Termiziy, Xoja Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Al-Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa o‘zbek zaminidan yetishib chiqqan daholarning tabarruk nomlari, betakror asarlari va ishlari qayta tiklandi.

O‘sib kelayotgan yosh avlodni xalq ma’naviyatining munosib davomchisiga aylantirish borasidagi ustuvor vazifalar ham aniq belgilab berilmoqda.

O‘zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan tashkil etilgan Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot xalqaro markazi, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi o‘zbek xalqining ulkan merosini asrab-avaylash va o‘rganishga sadoqatini, ilm-fan va ta’lim rivojiga qo‘shgan ulkan hissasini o‘zida mujassam etgani yuksak e’tirofga sazovordir.

— Mamlakatimizda ma’naviyat sohasida olib borilayotgan siyosat borasida fikringizni bilmoqchi edik. Sizning-cha, ma’naviyatni yuksaltirish mamlakatning zamonaviy taraqqiyotiga qanchalik ta’sir ko‘rsatishi mumkin?

— Tarixdan ma’lumki, madaniyat va ta’lim, tibbiyot, adabiyot, san’at va me’morchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq va qurilishning jadal ravnaq topishiga turtki bo‘lgan bunday sivilizatsiyaning yuksalishi, avvalambor, mintaqada tinchlik va osoyishtalikni ta’minlash orqali amalga oshdi. Binobarin, keyingi yillarda O‘zbekistonda inson faoliyatining barcha jabhalarida, ayniqsa, madaniyat va san’at sohasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli o‘zgarishlar va muvaffaqiyatlarga tarixiy nuqtayi nazardan qarasak, ularni haqli ravishda mustaqillik Renessansi davri yutuqlari deb aytishimiz mumkin.

O‘zbekistonning ma’naviy qadriyatlarni tiklash bo‘yicha tanlagan yo‘li madaniyat sohasida ham o‘zining naqadar to‘g‘riligini tasdiqladi, bunda davlat nafaqat bosh islohotchi, balki xayrixohga aylandi. Bugun biz bu ko‘mak naqadar konstruktiv bo‘lganini, san’at rivojiga qanday ulkan turtki berganini ko‘rib turibmiz.

Mamlakatda o‘tkazilayotgan xalqaro folklor musiqa festivallari, maqom, baxshichilik, “Sharq taronalari”, hunarmandlar anjumanlari va an’anaga aylanib borayotgan boshqa ko‘plab tadbirlar buning yaqqol tasdig‘idir.

Yaqinda Zominda bo‘lib o‘tgan Xalqaro maqom san’ati anjumanida qatnashdim. Mazkur festivalning tashkil etilishi yuksak tahsinga sazovor bo‘lib, O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylarining madaniy qadriyatlarga bo‘lgan shaxsiy e’tibori va yuksak munosabatini namoyon etadi.

Ma’naviyat, madaniyat va san’at inson qalbiga osonlikcha kirib boradigan qudratli vositadir. Shuning uchun ham odamlarni birlashtirib, ularni Vatan va xalq manfaatlari, ezgulik va insonparvarlik tamoyillari bilan bog‘liq yangi marralarga undaydigan ana shunday muqaddas tushunchalar borligini to‘g‘ri anglash ham juda muhim. Har bir inson o‘z hayotining asosiy mezoni, o‘z faoliyatida ularni dasturilamal deb bilsa, shubhasiz, bu ishning natijalari tom ma’noda ma’naviy kamolotga xizmat qiladi.

— Janob Salim al-Malik, mazmunli va batafsil javoblaringiz uchun minnatdorlik bildiramiz.

— Tashakkur.

“Dunyo” AA

Xalq bilan muloqot tizimi yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo‘ymoqda. Oldimizda turgan eng muhim vazifalardan biri Xalq qabulxonalari faoliyatini mahalla darajasiga tushirishdan iborat.

Inson qadri uchun

ADOLATGA ELTUVCHI YO‘L

Aholi muammolarini aniqlash va hal qilishning yangi platformasi ishlab chiqilib, mahallalarda sinovdan o‘tkazilmoqda. Asosiy maqsad — xalqimiz uchun o‘zini o‘ylantirayotgan har qanday masala bo‘yicha tezkor va sodda murojaat qilish uchun yanada qulay sharoit yaratish, mazkur platformani boshqa tashkilotlar ma’lumotlar bazalariga integratsiya qilish orqali fuqaro ko‘targan masala, haqiqatan, hal etilganini raqamli tizim orqali obyektiv nazorat qilishni ta’minlashdir.

Ulug‘bek MUHAMMADIYEV,
Prezident Xalq qabulxonasi rahbari

Boshlanishi 1-betda

Yangi formatdagi murojaatlar bilan ishlashning yetti yillik tajribasidan xulosa bitta: rahbarlar xalqni tinglasa, muammolar ichida ishlasa, nafaqat bir inson, bir oila, balki butun jamiyatga taalluqli tizimli masalalarni ham hal qilish mumkin. Murojaatlar bilan ishlash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgani natijasida ko‘p yillardan buyon yechilmay kelayotgan naqd pul, konvertatsiya, Toshkent shahri va poytaxt viloyatiga doimiy ro‘yxatga qo‘yish, fuqarolikka qabul qilish, haj va umra ziyoratlari, diplom nostrifikatsiyasi kabi o‘nlab tizimli muammolarga yechim topildi. Hatto sudlar tomonidan oqlov hukmlari chiqarila boshlandi.

Har kuni o‘rtacha 4 ming murojaat

Fikrimizni joriy yil yarmidagi faoliyat misolida davom ettirsak. O‘tgan 6 oyda Prezident virtual va Xalq qabulxonalariga 712,8 mingga yaqin murojaat kelib tushgan.

Bu — har kuni o‘rtacha 4 mingga yaqin ariza-shikoyat yoki taklif yuborilgan, degani.

Murojaatlarning 52 foizi 5 ta hudud — poytaxtimiz, Toshkent, Qashqadaryo, Surxondaryo va Samarqand viloyatlari aholisi hissasiga to‘g‘ri keladi. Tuman-shaharlar bo‘yicha G‘ozg‘on, Navoiy, Yangiyer, Ohangaron, Chirchiq, Bekobod, Shirin, Termiz shaharlari, Dehqonobod, Bektemir, Karmana, Mirobod, Paxtachi, G‘uzor, Sergeli, Termiz, Nurota, Sayxunobod, Uchquduq va Zafarobod tumanlaridan murojaat talaygina.

Ariza-shikoyat ko‘pligi muammolar ko‘lami bilan birga, aholining huquqiy madaniyati oshib borayotganini, murojaatlari hal bo‘lishiga ishonchi mustahkamlanayotganini ham anglatadi. Eng ko‘p — 61,4 ming murojaat ijtimoiy ta’minot yo‘nalishida, 59,6 mingtasi sud qarorlari ijrosi bo‘yicha, 48,3 mingta masala esa huquqbuzarliklarga oidligi ayni shu yo‘nalishlarda tizimli masalalar borligidan darak beradi. Fuqarolik ishlari bo‘yicha sud masalalariga doir ariza-shikoyatlar 1,5 barobar, avtojarimalarga oid murojaatlar qariyb 1 barobar oshgani haqida ham shunday fikrlar bildirish mumkin.

Qaysi oyda qanday masalalar dolzarb?

Prezident virtual qabulxonasi tizimining yana bir noyobligi shundaki, murojaatlar tahlili asosida istalgan hudud, soha, hatto davr bo‘yicha ham xalqimizni nima masalalar ko‘proq o‘ylantirayotganini tahlil qilish mumkin. Deylik, yanvardagi murojaatlarda bolalar nafaqasi, fuqarolik ishlari bo‘yicha sud hujjatlari va ijro, bandlik, huquqbuzarlik va firibgarlikka oid masalalar eng ko‘p aks etgan. Fevralda elektr energiyasi ta’minotidagi uzilishlar va moddiy yordam bo‘yicha ariza-shikoyatlar ko‘paygan.

Mart oyida gaz ta’minoti masalasi ko‘tarilgan bo‘lsa, aprelda aliment undirish, pensiya, nafaqa, tadbirkorlik uchun kredit ajratish, may oyida firibgarlik to‘g‘risidagi xabarlar, iyunda maishiy chiqindilarni olib ketish va elektr hisoblagichi nosozliklari bilan bog‘liq ariza-shikoyatlar soni oshgan.

E’tiborlisi, yanvar, fevral, aprel va iyun oylaridagi murojaatlarda 18 yoshgacha bolalar nafaqasi, martda elektr energiyasi ta’minotidagi uzilishlar, may oyida suyultirilgan gaz bilan bog‘liq muammolar birinchi o‘ringa chiqqani mazkur yo‘nalishlardagi tizimli masalalarni har tomonlama chuqur o‘rganib, kerakli chora-tadbirlar ishlab chiqish zarurligini bildiradi. Chunki murojaatlar aholi muammolarini o‘z vaqtida aniqlashning eng samarali indikatori, barometridir.

578 mingdan ortiq kishining roziligiga erishildi

Muammosi hal bo‘lgan odam ko‘ksini to‘ldirib nafas oladi, hayotida halovat paydo bo‘ladi. O‘zini yelkasidan tog‘ ag‘darilgandek his qiladi. Shu ma’noda, Prezident virtual va Xalq qabulxonalarida shu yil yarmida ko‘rib chiqilgan 680 mingdan ziyod murojaatning qariyb 85 foizi qanoatlantirilgani zamirida 578 mingdan ortiq inson hayotidagi ijobiy o‘zgarishlar mujassam.

Takroriy murojaatlar qayta o‘rganilishi natijasida ham ko‘plab masalalarga yechim topilmoqda. Masalan, Toshkent viloyati Chirchiq shahridagi tadbirkorlardan birining

ariza-shikoyatida ko‘p tilga olingan muammo yaqinda hal qilindi. Uning korxonasiga shartnomalar asosida yetkazib bergan mahsulotlari uchun Olmaliq kon-metallurgiya kombinatidan qariyb 8,3 milliard so‘m qonuniy haqi undirib berildi. Yoki poytaxtlik murojaatchiga 6 yil avval “snos” qilingan mulki uchun shu yil fevralda 2,5 milliard so‘mdan ziyod kompensatsiya berilishi ta’minlandi. Buning uchun hududiy mas’ullarning yuzaki o‘rganishlar bilan bergan javobini 28 marta rad etishga to‘g‘ri keldi.

Xuddi shunday bir necha marta rad etishdan so‘ng xivalik murojaatchining 2018-yilda Xiva shahrida buzilgan mehmonxonasi uchun shu shahardan 12 sotix yer maydoni ajratib berilishi ta’minlandi. Bekobodlik tadbirkor ayol bir yil avval tikuvchilik korxonasi yuk omborida yuz bergan katta yong‘in oqibatida 805 million so‘mdan ziyod zarar ko‘radi. Sug‘urta shartnomasiga ko‘ra, unga bu zarar qoplab berilishi kerak edi, lekin bu murojaatchi ham bir yilcha sarson bo‘lib, Prezident virtual qabulxonasiga shikoyat qilgach, yaqinda zarari to‘liq qoplab berildi.

Umumlashtirib aytganda, ijtimoiy ta’minot — pensiya, nafaqa, imtiyoz, kompensatsiya, ijtimoiy daftarlardagi fuqarolarning moddiy yordam, subsidiya bilan bog‘liq 37 ming 850 dan ziyod masalasi hal qilib berildi. Xususan, 2917 murojaatchiga uy-joyini qurish-ta’mirlashga, “Yoshlar daftari”dagi 1308 murojaatchiga o‘zi yoki farzandining kontraktini to‘lashga yordam ko‘rsatildi.

Bundan tashqari, sog‘liqni saqlash yo‘nalishidagi 13 ming 603, shu jumladan, 7353 murojaatchining davolanish, jarrohlik amaliyoti va dori-darmon bilan ta’minlashga oid hayotiy muammolariga yechim topildi.

Sayyor qabullarda 120,6 mingdan ziyod masala hal etildi

Sayyor qabullar odamlar uchun o‘z dardu tashvishlarini mutasaddilarga aytish, katta-kichik rahbarlar uchun eng quyi bo‘g‘inga tushib ishlash, har qanday masalaning tub mohiyatini anglash uchun ochiq, shaffof va samarali muloqot maydonidir. Davlatimiz rahbari topshirig‘i asosida Xalq qabulxonalari keyingi olti oyda chekka, olis, chegaradosh qishloq, ovul va mahallalarda tashkil qilgan sayyor qabullarda 183,5 mingdan ziyod murojaat ko‘rib chiqilib, 120,6 mingdan ziyodi ijobiy hal qilindi.

Xususan, Prezident Administratsiyasi mas’ullari ko‘rib chiqqan 971 ta murojaatning 98 foizi, vazirlik, idora va agentliklar rahbarlari qabullaridagi qariyb 2,4 ming murojaatning 39,5 foizi, sektorlar rahbarlariga kelib tushgan 180,2 mingdan ortiq masalaning 66 foiziga yechim topildi.

Bundan tashqari, Xalq qabulxonalari binolarida Qoraqalpog‘iston Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari, tuman-shahar sektor rahbarlarining shaxsiy qabulida ko‘rib chiqilgan 4,2 mingdan ziyod murojaatning 84,9 foizi qanoatlantirildi.

2 mingga yaqin mas’ul javobgarlikka tortildi

Murojaatga yo‘llangan javob fuqaro ishtirokida o‘rganilganda ariza-shikoyatga samarali yechim topish mumkin. Shuning uchun ham Xalq qabulxonalari 9 mingdan ziyod murojaat ko‘rib chiqilishi bo‘yicha qabul qilingan 10,3 mingdan ziyod qarorni joyiga chiqib o‘rgandi. Deputatlar bilan hamkorlikda 3 mingga yaqin murojaat ko‘rib chiqilib, shundan 1,7 mingdan ziyodi ijobiy hal etildi. Sektorlar faoliyati bo‘yicha 2,4 mingga yaqin monitoring, davlat idoralarida murojaatlar bilan ishlash holati yuzasidan qariyb 2,9 mingta o‘rganish o‘tkazildi.

Qariyb 6,4 ming mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha murojaatlar joyiga chiqilib, tahlil qilindi. Ana shu o‘rganishlar asosida 884 hokim yordamchisi faoliyati natijadorligini ta’minlash bo‘yicha individual taklif-tavsiyalar ishlab chiqilib, 2,7 mingdan ziyod seminar o‘tkazildi.

Xalq deputatlari kengashlariga 1260 ta

axborot kiritilib, ular asosida davlat idoralari va sektorlarning 1965 rahbari hisobotlari eshitildi. Muammolarni hal qilish borasida ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan 2476 taqdimnoma, 2783 taklif va 4809 ko‘rsatma kiritildi.



Natijada aholi murojaatlari bilan talab darajasida ishlamagani uchun davlat idoralari mas’ul xodimlarining 1976 nafari javobgarlikka tortildi. Xususan, ularning 183 nafari egallab turgan lavozimidan ozod etildi, 459 nafari ma’muriy javobgarlikka, 140 nafari oylik ish haqidan jarimaga tortildi, 1194 nafariga hayfsan e’lon qilindi. Bundan tashqari, yana qariyb 2490 mas’ul rasman ogohlantirildi.

Xalq qabulxonalari xodimlari malakasi oshirildi

O‘zgarayotgan davr, kundan kun tezlashayotgan hayot shiddati, bugungi kunning o‘zi murojaatlar bilan ishlashni sifat darajasiga ko‘tarishni taqozo etmoqda.

Shu bois, joriy yil avvalida Davlat boshqaruvi akademiyasida Xalq qabulxonalari xodimlari uchun aholi bilan ishlash bo‘yicha kasbiy bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan malaka oshirish kurslari tashkil etildi. Buning uchun Prezident Administratsiyasi, Davlat boshqaruvi akademiyasi, vazirlik, idoralar, ta’lim muassasalaridan malakali 39 mutaxassis jalb etilib, 19 mavzu bo‘yicha ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar, 6 mavzu bo‘yicha treninglar o‘tkazildi. Hududlarda tuman va shahar Xalq qabulxonalari xodimlari ishtirokida yuzdan ortiq o‘quv mashg‘uloti tashkil etildi.

Murojaatdan daromadga 5 qadam

Bugun eng dolzarb masalalardan yana biri aholi daromadini oshirish uchun zarur shart-sharoit yaratish va yordam berishdan iborat. Yuqorida aytilganidek, Prezident Xalq qabulxonalariga joriy yil birinchi yarmida eng ko‘p kelib tushgan murojaatlar aynan ijtimoiy ta’minot masalasida ekani ham buni isbotlaydi.

Mazkur ariza-shikoyatlar tahlil qilinganda moddiy yordam so‘rovlarining asl sababi oilaviy daromad pastligi bilan bog‘liqligi oydinlashdi.

Shundan kelib chiqib, davlatimiz rahbari topshirig‘iga ko‘ra, Prezident Xalq qabulxonasi joriy yilda oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash orqali yangi ish o‘rinlari yaratish bo‘yicha “Murojaatdan daromadga” loyihasini amalga oshirishga kirishdi.

Bu loyiha besh bosqichni o‘z ichiga oladi.

Birinchi qadam murojaatni qabul qilish bo‘lib, bunda, asosan, moddiy yordam masalasida ko‘p arz qilgan fuqarolar uyiga borib, oilaviy ahvoli, chindan muhtoj yo muhtojmasligi, bu arizalarga qanday omillar sabab bo‘layotgani “mahalla yettiligi”, hokimlik, sektorlar vakillari bilan hamkorlikda har tomonlama chuqur o‘rganildi.

Ikkinchi qadam sifatida fuqaroning kasb-hunarga layoqati, oilaviy sharoiti, tomorqadan foydalanish madaniyati, mavjud imkoniyatlarini o‘rganish uchun murojaatchilar bilan individual suhbatlashildi, qaysi yo‘nalishda ishni eplab ketishi, daromad topa olishi bo‘yicha bir to‘xtamga kelindi.

Uchinchi qadam daromad topishga tayyorlash bo‘lib, bu jarayonda chevarlik yoki pishiriq pishirishga qiziqadigan xotin-qizlarni kasb-hunarga o‘qitish, so‘ng ularga tikuv mashinasi yo pishiriq pechi olib berishga qaror qilindi.

Uyida chorvasi bor ayollarga sutni qayta ishlovchi separator, tomorqalarda xizmat ko‘rsatishni tanlagan yigitlarga motokultivator, yer maydoni bor, biroq oqar suv muammosiga uchrayotgan oilalarga sug‘orish nasosi ajratildi.

To‘rtinchi qadam ishsizlarni ilg‘or tadbirkorlarga biriktirish bo‘lib, bunda hunari va ish anjomi bor fuqarolarni shu sohada kuchli malaka va katta tajribaga, o‘z bozoriga ega tadbirkorlarga bog‘lash bo‘yicha ishlandi. Bu esa ular bilan kooperatsiya tashkil qilish imkonini berdi.

Beshinchi qadam murojaatchilarni daromadga olib chiqish bo‘lib, Xalq qabulxonasi, sektorlar va “mahalla yettiligi” kooperatsiya faoliyatini va murojaatchining barqaror daromad topishini doimiy monitoring qilib boradi.

Albatta, buning uchun murojaatchilardan kuchli sabr, chidam, metin iroda, betinim mehnat talab etiladi. Muhimi, ular daromadli bo‘lishi uchun barcha sharoit va imkoniyat yaratilib, mahalla vakillari doimiy ko‘makchi bo‘lmoqda.

Ayni shu maqsadda davlatimiz rahbari topshirig‘iga, asosan, Prezident Xalq qabulxonasi joriy yilning o‘tgan davrida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Jizzax, Farg‘ona, Xorazm, Buxoro va Surxondaryo viloyatlaridagi 400 dan ziyod mahallada mazkur loyihani amalga oshirdi.

Unga ko‘ra, Baxmal, Arnasoy, Mirzacho‘l, Toshloq, Quvasoy, Farg‘ona, Shovot, Hazorasp, Tuproqqal’a, Yangibozor, Shofirkon, Xo‘jayli, Bo‘zatov, Denov, Oltinsoy, Sariosiyo, Uzun va Sho‘rchi tumanlari, Nukus, Farg‘ona, Quvasoy va Qo‘qon shaharlaridagi 1788 murojaatchiga amaliy yordam ko‘rsatildi.

Shulardan 1400 dan ziyod ishsiz murojaatchiga, asosan, og‘ir sharoitdagi xotin-qizlarga o‘n turga yaqin ish anjomi olib berilib, hududidagi ilg‘or tadbirkorlarga biriktirildi.

Natijada Shovot tumanining Shovot mahallasida hunarmand Sadoqat Matpanayeva 10 turdagi quroqlar tayyorlab, Qozog‘istonga eksport qilyapti. Buyurtmalari kundan kun oshayotgan Sadoqat mazkur loyiha doirasida yana 6 nafar quroqchini ishga qabul qildi.

Kamida besh yillik tajribaga ega baxmallik Marhabo Nazarova va Mehriniso Rahmonova kabi yosh tadbirkorlar ham 3-4 nafardan yangi chevarni yoniga olib, faoliyatini yanada kengaytirdi. Ularning aytishicha, ishlagan chevar Baxmalning shu chekka qishlog‘ida turib ham bemalol oyiga 3-4 million so‘m daromad qila oladi.

Shofirkonning Qalmaqon mahallasida yashovchi Mohira Ikromova uyida go‘shtni qayta ishlab, yarim tayyor oziq-ovqat mahsulotlari, Denov mahallasida yashovchi Nodira Karimova esa separatorda sutdan qaymoq, sariyog‘ olib, bozorga chiqarishni yo‘lga qo‘ydi.

Bundan tashqari, yana 138 murojaatchiga sog‘lig‘ini tiklashi, farzandlarining kontrakt to‘lovini to‘lashi uchun moddiy yordam ajratildi.

Og‘ir cho‘l hudud bo‘lmish Arnasoyda oqar suv taqchil mahalda tomorqalardagi ekinlarni saqlab qolish uchun sizot suvdan foydalanish imkoni yaratilmoqda. Hozircha 250 xonadon tomorqasidan yanada samarali foydalanib, daromad olishi uchun quduq va nasoslar ishga tushirildi. Bu ko‘rsatkich tez orada 500 taga yetkaziladi. Ichishga yaroqsiz sizot suvga mahalliy o‘g‘it aralashtirilib, asosan, yoz chillasida ekinlar sug‘orilyapti.

Mirzacho‘l tumanining “Yangidala”, “Do‘stlik”, “O‘zbekiston” mahalla fuqarolar yig‘inlaridagi 392 ta xonadon tomorqalarini sug‘orish uchun nasos orqali oqar suv olib kelinmoqda.

Xalq bilan muloqot tizimi takomillashtiriladi

Xalq bilan muloqot tizimi yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo‘ymoqda. Oldimizda turgan eng muhim vazifalardan biri Xalq qabulxonalari faoliyatini mahalla darajasiga tushirishdan iborat.

Shu maqsadda aholi muammolarini aniqlash va hal qilishning yangi platformasi ishlab chiqilib, mahallalarda sinovdan o‘tkazilmoqda. Asosiy maqsad — xalqimiz uchun o‘zini o‘ylantirayotgan har qanday masala bo‘yicha tezkor va sodda murojaat qilish uchun yanada qulay sharoit yaratish, mazkur platformani boshqa tashkilotlar ma’lumotlar bazalariga integratsiya qilish orqali fuqaro ko‘targan masala, haqiqatan, hal etilganini raqamli tizim orqali obyektiv nazorat qilishni ta’minlashdir.

Inson bor ekan, yangi-yangi muammolar paydo bo‘lishi, bu masalalar ariza-shikoyat yoki takliflarga aylanishi, murojaat vositasida har bir masalaga adolatli yechim talab qilinishi o‘ta tabiiy jarayon, hayot qonuniyatidir. Demak, xalq bilan muloqot tizimini takomillashtirish bugunning eng o‘tkir, dolzarb talablaridan. Bu esa barchamizni yagona maqsad — xalq talab va istaklari asosida ishlashga, insonlarning dardu tashvishlari bilan yashashga undaydi.

Faqat va faqat xalq bilan muloqot qilish orqali har bir inson, oila barcha davrda istaydigan, intiladigan ijtimoiy adolatga erishishi mumkin. Zotan, ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy ta’kidlaganidek, “Har bir millatning taraqqiy va taoliysi, davlat va hukumatlarning uzun yashamog‘i adolatga bog‘liqdur”.

O‘tgan qisqa vaqt ichida mamlakatimiz katta natijalarni qo‘lga kiritdi. O‘zbekistonning dunyoga ochilgani, yaqin qo‘shnilari bilan tarixiy rishtalarni tiklagani, xalqaro miqyosda katta tashabbuslarni dadil ilgari surib, sobitqadamlik bilan oldinga ildamlayotgani ham ayni haqiqat.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 20-iyul, 145-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Ekspertlar fikri

MARKAZIY OSIYO TARAQQIYOTI UCHUN BARQAROR ASOS BO‘LIB XIZMAT QILADIGAN YANGI TARIXIY VOQEA

Xorijlik ekspertlar Qirg‘iziston Prezidenti Sadir Japarovning 18-19-iyul kunlari O‘zbekistonga davlat tashrifi va oliy darajadagi muzokaralar yakunlari tarixiy ahamiyatga ega bo‘lib, ko‘p tomonlama o‘zbek-qirg‘iz sherikligi va Markaziy Osiyo mintaqasida faollashgan hamkorlikning navbatdagi bosqichi uchun mustahkam asos yaratishiga e’tibor qaratmoqda.

Kubanichbek TAABALDIYEV, qirg‘izistonlik siyosatshunos:

— Prezident Sadir Japarovning O‘zbekistonga bu galgi tashrifi o‘zaro munosabatlarda muhim ahamiyatga ega. Chunki ikki davlat rahbarlarining do‘stona munosabatlarni strategik sheriklikning yanada yuqori darajasiga olib chiqish istagi amaliy va istiqbolli loyihalar bilan qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Qirg‘iziston va O‘zbekiston o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarning mustahkamlanishi ikki mamlakat xalqlari imkoniyatlariga to‘liq mos keladi. Shuning uchun ham ikki xalq o‘rtasidagi ko‘p asrlik aloqalarni mustahkamlaydigan Madaniyat kunlari qayta tiklanmoqda.

Iqtisodiy sohada ikki davlat rahbarlari ishtirokida Qirg‘izistonning Chuy viloyatida birinchi qo‘shma avtomobillar ishlab chiqarish zavodi ishga tushirilishi o‘zaro munosabatlar nafaqat yangi bosqichga ko‘tarilayotganidan, balki tomonlarning ulkan texnik salohiyatidan dalolat beradi. Toshkentda bo‘lib o‘tgan biznes-forum davlatlarimiz ishbilarmon doiralari o‘zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirishdan qanchalik manfaatdor ekanini yana bir bor namoyon etdi.

Boshqa sohalar qatori ta’limda ham hamkorlik rivojlanib bormoqda. Qirg‘iziston Prezidentining O‘zbekistonga tashrifi arafasida Samarqand shahrida o‘tkazilgan Rektorlar forumi buning yorqin tasdig‘idir.

Ikki tomonlama aloqalarning mustahkamlanishida davlat rahbarlarining shaxsiy munosabatlari muhim omil bo‘layotir. Boshidanoq qo‘shnilar bilan hamkorlikni kengaytirish va mustahkamlashni mamlakat taraqqiyotining asosiy yo‘nalishi sifatida belgilagan O‘zbekiston Prezidenti Qirg‘iziston Prezidentini har tomonlama qo‘llab-quvvatlaydi. Aloqalar esa tobora mustahkamlanib bormoqda. Shuningdek, bu jihatlar Qirg‘iziston va O‘zbekiston xalqlari farovonligi garovidir.

Lutfullo RAHMONOV, “O‘sh sadosi” gazetasi bosh muharriri:

— O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasidagi munosabatlar jadal rivojlanish bosqichiga chiqdi. “Yon qo‘shni — jon qo‘shni”, “Do‘st og‘ir kunda bilinadi”, deb bejiz aytilmagan. Har bir davlat tabiiy ofatlarni boshdan kechirishi mumkin. Xususan, Toshkent zilzilasi, Qozog‘istondagi suv toshqinlari, kuni kecha O‘sh viloyati va shahriga talaygina zarar yetkazgan, hattoki bir necha inson hayotiga zomin bo‘lgan sel ofati shular jumlasidandir.

Bunday og‘ir damlarda bir-biriga yordam ko‘rsatish, ham moddiy, ham ma’naviy qo‘llab-quvvatlash azal-azaldan qardosh xalqlarning asriy odatlaridan biri bo‘lib kelgan.

Ushbu og‘ir vaziyatda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Qirg‘izistonga 200 tonnadan ortiq insonparvarlik yordami yuborildi. Bu, albatta, chegaradosh ikki yurt o‘rtasidagi samimiy hamkorlik, inoqlik va do‘stlik aloqalarining mustahkamlanishi samarasidir.

Bugungi kunda Qirg‘iziston Prezidenti Sadir Japarov va O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning siyosiy irodasi tufayli mamlakatlarimiz o‘rtasida ko‘plab dolzarb muammolar bartaraf etilmoqda. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, suv, hudud, chegaralar kabi masalalar ziddiyatlarsiz o‘zaro kelishuv yo‘li bilan hal qilinmoqda.

Ishonamanki, bo‘lib o‘tgan oliy darajadagi davlat tashrifi ikki el o‘rtasidagi do‘stlik aloqalari yanada rivojlanishiga va o‘zaro manfaatli sheriklikni jadallashtirishga xizmat qiladi.

Daliya OLTUNTEPE, “Niderlandiya — O‘zbekiston” do‘stlik jamg‘armasi raisi:

— Tashrif O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasidagi munosabatlarda burilish davri bo‘lib, ikki tomonlama hamkorlikni chuqurlashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Bu voqea iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash va turli sohalarda foydalanilmagan ulkan salohiyatni ishga solishga sodiqlikdan dalolat beradi.

Har ikki davlat ham samarali hamkorlik uchun asos sifatida kuchli iqtisodiy sheriklik sari intilmoqda. Qirg‘iziston va O‘zbekiston iqtisodiy hamkorlikka e’tibor qaratish orqali o‘sishni rag‘batlantirishi va tadbirkorlar uchun yanada qulay muhit yaratishi mumkin.

Hamkorlik salohiyatini mustahkamlashning asosiy yo‘nalishi transport sektoridir. Qirg‘iziston va O‘zbekiston o‘rtasidagi transport infratuzilmasini mustahkamlash va aloqalarini yaxshilash muhim ahamiyatga ega. Samarali transport tarmoqlari iqtisodiy o‘sishda tovarlarning erkin harakatlanishini osonlashtiradi. O‘zaro munosabatlarning yaxshilanishi savdo hajmini oshirish, bozorlarga kirishni yengillashtirish va mintaqaviy iqtisodiyotning kengroq integratsiyalashuviga olib keladi.

Turizm sektorida hali foydalanilmagan katta salohiyat mavjud. Qirg‘iziston va O‘zbekiston boy madaniy va tarixiy merosga ega, bu ularni xalqaro sayyohlar uchun yanada jozibador qiladi. Ikki davlatning o‘ziga xos diqqatga sazovor joylari bo‘ylab qo‘shma turistik marshrutlarni ishlab chiqish va ilgari surish sayyohlar uchun yanada jozibador takliflar yaratish imkonini beradi.

Xalqaro standartlarga mos va tashrif buyuruvchilar uchun qulay sharoit yaratishda transport, turar joy va turizm xizmatlariga investitsiya kiritish zarur.

Qirg‘iziston Prezidentining O‘zbekistonga tashrifi faqatgina diplomatik voqea emas, bu ikki tomonlama hamkorlik uchun keng imkoniyatlar ochadigan darvozadir. Iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, transport-kommunikatsiya infratuzilmasini yaxshilash va turizm sohasi salohiyatidan foydalanishga e’tibor qaratish orqali har ikki davlat barqaror iqtisodiy o‘sish va o‘zaro farovonlikka yo‘l ochishi mumkin. Ushbu sohalardagi qo‘shma sa’y-harakatlar va investitsiya kiritish nafaqat Qirg‘iziston va O‘zbekiston iqtisodiyotiga foyda keltiradi, balki fuqarolar hayotini ham yaxshilaydi.

Su CHAN, Xitoy Ijtimoiy fanlar akademiyasining Rossiya, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo instituti yetakchi ilmiy xodimi:

— Albatta, bo‘lib o‘tgan oliy darajadagi muzokaralar ikki tomonlama munosabatlarni yanada jadal va mazmunli qiladi.

Qirg‘iziston yetakchisining O‘zbekistonga tashrifi davomida qator ikki tomonlama tadbirlar, jumladan, Hukumatlararo komissiya yig‘ilishi, biznes-forum, Rektorlar forumi, shuningdek, Qirg‘iziston madaniyati kunlari kabi rang-barang tadbirlar bilan birga o‘tdi.

Tashrif yakunlari bo‘yicha katta hujjatlar to‘plami qabul qilindi. Ulardan eng asosiysi O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini yanada chuqurlashtirish va kengaytirish to‘g‘risida Qo‘shma bayonot hisoblanadi. Shuningdek, Prezidentlar raisligidagi Davlatlararo kengash tuzishga kelishib olindi.

Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Sadir Japarov ishtirokida bir qator yangi qo‘shma loyihalarga start berildi. Bular O‘zbekiston hududida elektr energiyasi ishlab chiqarish va Qirg‘izistonga eksport qilish bo‘yicha quyosh elektr stansiyalarini qurish, avtomobillar va uskunalar, tikuv-trikotaj mahsulotlari va mato ishlab chiqarish sohalaridagi yangi kooperatsiya loyihalaridir.

O‘zbekiston va Qirg‘iziston yaqin yillarda o‘zaro tovar ayirboshlash hajmini 2 milliard dollarga yetkazish, shuningdek, O‘zbekiston — Qirg‘iziston taraqqiyot jamg‘armasining ustav kapitalini 200 million dollargacha oshirish bo‘yicha kelishib olgani alohida e’tiborga molik.

Ikki davlat rahbarlarining barcha kelishuvlari, shubhasiz, Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash, butun mintaqa taraqqiyoti va farovonligi uchun yangi imkoniyat va shart-sharoitlar yaratishga xizmat qiladi. Xitoy O‘zbekiston va Qirg‘izistonning Shanxay hamkorlik tashkiloti va “Markaziy Osiyo — Xitoy” formati doirasidagi hamkori sifatida bundan manfaatdor.

Adnan Muhammad AL-XITARIY, Qatarning “Petro-Q” kompaniyasi raisi maslahatchisi:

— O‘tgan bir necha yil ichida O‘zbekiston rahbarining sa’y-harakatlari bilan Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi o‘zaro ishonch va hamkorlik yangi bosqichga ko‘tarilganini alohida ta’kidlamoqchiman. Shu vaqt ichida mintaqada do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va o‘zaro hamjihatlik muhiti tubdan yaxshilandi.

O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasidagi hamkorlik so‘nggi paytlarda jadal rivojlanmoqda. Ikki davlat rahbarlarining o‘zaro faol va ishonchli muloqoti tufayli erishilgan ko‘p qirrali o‘zbek-qirg‘iz aloqalari izchil mustahkamlanib bormoqda. Tomonlar barcha sohalardagi hamkorlikni yanada chuqurlashtirish uchun katta sa’y-harakatlarni amalga oshirmoqda, bu esa ikki davlat manfaatlariga mos keladi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan chuqur o‘ylangan islohotlar va yangilanishlar qo‘shni davlatlar uchun katta qiziqish uyg‘otish barobarida, mintaqaviy jarayonlar rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston mintaqaviy ahamiyatga molik loyihalarni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Ushbu tashrif ikki mamlakat o‘rtasidagi munosabatlar uchun ham, mintaqaviy hamkorlik uchun ham o‘z vaqtida amalga oshirilgani shubhasiz.

Tashrif doirasida bo‘lib o‘tgan biznes-forum ikki mamlakat ishbilarmon doiralarining yaqin hamkorlikni yanada chuqurlashtirishdan manfaatdor ekanini ko‘rsatdi.

“Dunyo” AA

Bir bo‘lsak — yagona xalqmiz, birlashsak — Vatanmiz!

MILLIY YUKSALISH SAODATI

xalqimizni buyuk maqsad yo‘lida birlashtirib, yutuq va marralar sari ilhomlantirmoqda

Mamlakatimiz tarixidagi 33 yil istiqlolni qo‘lga kiritish, siyosiy mustaqillikni iqtisodiy erkinlik bilan mustahkamlash, turli to‘siqlarni yengib o‘tish va yangi marralarni zabt etish payti bo‘ldi.

Ota-bobolarimiz asrlar davomida intilgan, kurashgan, kerak bo‘lsa jonini fido qilgan bebaho ne’matni xalqimiz ko‘z qorachig‘iday asrab-avaylab kelmoqda. Bu yo‘lda ne-ne sinovlarga duch kelganimiz ham bor gap. Xalqimiz oqillik, hamjihatlik bilan dovonlar oshib, dunyoda obro‘-e’tiborini mustahkamlamoqda. Shu bois, mustaqillik bayrami biz uchun aziz va mukarramdir.

Mamlakatimizda har yili bu bayram katta shodiyona va tantana bilan kutib olinadi. Bayramni Vatanimizning bugungi qudrati, mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlar, xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiboriga mos tarzda o‘tkazish maqsadida davlatimiz rahbarining “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz uch yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

Keyingi yetti yillikda yurtimiz hayotida katta o‘zgarish va yangiliklar sodir bo‘ldi. Mazkur ishlar bu yilgi bayram tadbirlarining asosiy g‘oyasini tashkil etadi.

Qarorga muvofiq, davlat mustaqilligining o‘ttiz uch yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha respublika komissiyasining tarkibi tasdiqlandi, amalga oshiriladigan vazifalar belgilab berildi.

Qayd etish kerakki, hayotda yangilik qilish, nimanidir o‘zgartirishning yagona sharti mustaqil bo‘lish. Mustaqil inson kabi mustaqil davlat ham o‘z taqdirini o‘zi hal qiladi, taraqqiyot yo‘lini o‘zi belgilaydi.

O‘tgan qisqa vaqt ichida mamlakatimiz katta natijalarni qo‘lga kiritdi. O‘zbekistonning dunyoga ochilgani, yaqin qo‘shnilari bilan tarixiy rishtalarni tiklagani, xalqaro miqyosda katta tashabbuslarni dadil ilgari surib, sobitqadamlik bilan oldinga ildamlayotgani ham ayni haqiqat.

Bu yilgi bayram tantanalari “Bir bo‘lsak — yagona xalqmiz, birlashsak — Vatanmiz!” bosh g‘oyasini o‘zida mujassam etganida juda katta ma’no bor. Bu g‘oya asosidagi tashkiliy-amaliy, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar hamda targ‘ibot-tashviqot ishlari “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi, shuningdek, “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” bo‘yicha qabul qilingan davlat dasturi bilan uyg‘un holda tayyorlanadi.

Hujjatda belgilanganidek, bayram tadbirlari dasturida boqiy qadriyat va an’analarimiz, boy urf-odatlarimiz tarannum etiladi. Keng aholi qatlamlari o‘rtasida mustaqillik bayramiga bag‘ishlangan ma’naviy-ma’rifiy anjumanlar, uch avlod uchrashuvlari, ochiq muloqot va suhbatlar, adabiy-badiiy kechalar, milliy kino kunlari, sayillar, madaniyat va sport tadbirlari, gastronomik festivallar o‘tkaziladi.

— O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz uch yillik bayrami Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida, shuningdek, barcha shahar hamda tumanlar, qishloq va ovullarda yuqori kayfiyatda, munosib nishonlanadi, — deydi Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbari Otabek Hasanov. — Ayni maqsadda joylarda ma’rifiy uchrashuv va suhbatlar, konsert dasturlari tashkil etiladi. Markaz, Madaniyat vazirligi, Mahallalar uyushmasi bilan hamkorlikda 594 ta eng chekka qishloq va ovul belgilab olindi. Asosiy maqsadimiz ana shunday olis hududlar, mahallalar, ta’lim muassasalari, mehnat jamoalarida yurtimizda inson qadri, uning huquq va manfaatlari yetakchi o‘rinda turadigan ijtimoiy davlat va xalqparvar jamiyat qurish yo‘lida amalga oshirilayotgan tarixiy ishlar, mehnatkash va bag‘rikeng xalqimizning bunyodkorlik salohiyati bilan erishilayotgan ulkan natijalar mazmun-mohiyatini keng targ‘ib qilishdan iborat.

Bayram munosabati bilan keksa avlod vakillari, xususan, Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va mehnat fronti faxriylarini har tomonlama e’zozlash, “Mehribonlik”, “Saxovat” va “Muruvvat” uylarida yashayotgan shaxslar, ijtimoiy himoya daftarlariga kiritilgan hamda ko‘makka muhtoj insonlarning holidan xabar olish, ularga moddiy va ma’naviy yordam berish bilan bog‘liq xayriya tadbirlari o‘tkaziladi. Vatanimizning milliy istiqloli, xalqimiz ozodligi uchun kurashib, shu yo‘lda jon fido etgan, mustabid tuzum davrida siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan ota-bobolarimizning xotirasi yod etiladi.

Ijodkor uchun eng aziz mavzu — Vatan. Eng aziz so‘z — erk va mustaqillik. Bu yilgi bayram tantanalari ijodkor ahliga yangicha g‘urur va surur baxsh etadi. Boisi, ular o‘rtasida “Ona diyor — ranglar jilosida”, “Vatan uchun yashaylik!”, “Eng ulug‘, eng aziz” kabi an’anaviy, shuningdek, yurtimiz istiqlolini tarannum etuvchi eng yaxshi qo‘shiq va musiqa asarlari tanlovlari o‘tkaziladi. Mazkur tanlovlar g‘olib va sovrindorlari mustaqillik bayrami arafasida e’lon qilinadi va ular tantanali ravishda taqdirlanadi.

Ha, o‘tgan har bir kun bizni eng ulug‘, eng aziz bayramimizga yaqinlashtirmoqda. Davlatimiz bosib o‘tgan zafarli yillarga razm solish har birimizga faxr va iftixor ulashadi. Muhimi, xalqimiz erishgan ulkan yutuqlarda shu yurtda yashayotgan har bir insonning munosib hissasi bor.

Shunday ekan, mazkur qaror bu fikrlarni yanada teranroq anglashimiz, yurt taqdiri uchun daxldorlik hissini tuyishimizda muhim ahamiyat kasb etadi.

Lutfulla XAYRULLAYEV, jurnalist

OLIY TA’LIM UCH YILLIK DASTURGA O‘TKAZILADI

TALABALAR BIR VAQTNING O‘ZIDA IXTISOSLIGI BO‘YICHA ISHLAB, KASBIY KO‘NIKMALARINI ISH JOYIDA RIVOJLANTIRADI

Turizm

Dunyoda turizm sohasiga barcha infratuzilmani taraqqiy ettirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida qaraladi. Zamonaviy sayyohlik transport, ijtimoiy va xizmat ko‘rsatish jabhalarining yuqori darajada rivojlanishiga asoslangan bo‘lib, bu oxir-oqibat uni iqtisodiyotning yuqori daromadli, ya’ni drayver sohasiga aylantiradi.

Lutfulla SUVONOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Bugun turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan va istiqbolli tarmoqlaridan biri. Globallashuv jarayoni odamlarning dunyo bo‘ylab erkin harakatlanishiga keng imkoniyat eshigini ochdi. Mamlakatimizda ham sayyohlikni rivojlantirish juda katta iqtisodiy samara beradi. Chunki bu xorijga mahsulot eksport qilmay, valyuta olib kirish imkoniyati demak.

Tahlillarga ko‘ra, ko‘pgina rivojlangan davlatlarda turizmdan keladigan daromad boshqa sohalarga qaraganda ancha ko‘p valyuta tushumi keltiradi. Masalan, Turkiya yiliga 4-5 milliard dollarlik tovar eksport qilsa, sayyohlik faoliyatidan 10 milliard dollardan ortiq foyda oladi. Avstriya, Angliya, Italiya, Fransiya, Ispaniya kabi davlatlarda ham ana shunday yuqori ko‘rsatkichlarni ko‘rish mumkin.

O‘zbekiston 1993-yil 4-oktabrda Markaziy Osiyo davlatlari orasida birinchi bo‘lib Butunjahon turizm tashkilotiga a’zo bo‘ldi. Bu, o‘z navbatida, mamlakatimizda sayyohlikni rivojlantirishga katta turtki berdi.

Keyingi yillarda turizm sohasini qo‘llab-quvvatlash, shu yo‘nalish bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlarga imtiyozlar berish, shuningdek, sayyohlik infratuzilmasini shakllantirish borasidagi ishlar yangi bosqichda jadal rivojlanmoqda. Zero, mamlakatimizda tarixiy, madaniy va xushmanzara joylar juda ko‘p. Ular negizida turizm maskanlari, mehmonxonalar barpo etilmoqda. Shuningdek, viza berish tartib-taomillari soddalashtirilib, sayyohlik biznesiga qulaylik yaratildi. Sayyohlar xavfsizligini ta’minlash maqsadida turizm politsiyasi tashkil etildi.

Prezidentimizning 2023-yil 26-apreldagi “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida mamlakatimizning sayyohlik salohiyatidan to‘liq va samarali foydalanish, birinchi navbatda, transport-logistika va turizm infratuzilmasidagi muammolarni tezkor hal etish, shuningdek, mavjud resurslar va imkoniyatlardan har tomonlama foydalanish hisobiga sohada faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun qator qulaylik va imtiyozlar yaratildi.

Joriy yil 3-iyun kuni bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishi hamda tadbirkorlar bilan muloqotda Prezidentimiz soha mutasaddilariga bu tarmoqni yanada rivojlantirish maqsadida qator topshiriqlar bergan edi. 16-iyul kuni davlatimiz rahbariga ana shu topshiriqlar ijrosi doirasida hududlarda turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijlik sayyohlar oqimini ko‘paytirish chora-tadbirlari bo‘yicha taqdimot qilindi.

— Prezidentimizga soha rivojiga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar taqdimot qilindi, — deydi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi raisi Umid Shodiyev. — Shunga ko‘ra, turizm sohasi rivojiga qaratilgan 5 ta muhim hujjat imzolandi. Xorijlik sayyohlarni yurtimizga jalb qilish uchun turizm tashkilotlarini aylanma mablag‘ bilan ta’minlash maqsadida Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasidan 50 million dollar qiymatida alohida kredit liniyasi ochilmoqda. Bu kredit milliy valyutada yillik 17 foiz stavkada, 2 yillik imtiyozli davr bilan 10 yilga ajratiladi. Salohiyati yuqori bo‘lgan joylarda master-rejalar asosida turizm maskanlari barpo etiladi. Bunday hududlar infratuzilmasini yaxshilash uchun joriy yilda mamlakat byudjetidan 100 milliard so‘m yo‘naltiriladi. Shuningdek, ularning har biriga 50 million dollar miqdorida investitsiya jalb qilinadi.

Turizm sohasidagi tadbirkorlar uchun qator yengilliklar ham nazarda tutilmoqda. Ular orasida avtobus va mikroavtobuslarni bojxona bojidan ozod etish, turoperator va hunarmandlarning xalqaro yarmarkalardagi xarajatining 50 foizini qoplab berish, xorijiy mehmonlar ishtirokida biznes tadbirlar tashkil qilgan tadbirkorlarning foyda solig‘ini 50 foizga kamaytirish kabi choralar bor.

Shuningdek, davlatimiz rahbari O‘zbekistonning milliy turizm brendini yaratish zarurligini ta’kidlagan edi. Shunga muvofiq, maqsadli bozorlar talablaridan kelib chiqib, yurtimizdagi sayyohlik manzilgohlari to‘g‘risida kontentlar yaratiladi. Ular xalqaro media va ijtimoiy platformalar, jahon sport va san’at tadbirlarida targ‘ib qilinadi. Bunga auditoriyasi katta xorijlik jurnalist, bloger va inflyuenserlar ham jalb etiladi.

Sayyohlarga qulaylik yaratish maqsadida barcha avia, temir yo‘l va avtobus qatnovlari haqida ma’lumot va chipta olish imkonini beradigan yagona onlayn platforma ishga tushiriladi. Avia, temir yo‘l va avtobus chiptalarini kamida olti oy oldin savdoga chiqarish tizimi joriy qilinadi. Umumxalq bayramlari kunlarida qo‘shimcha aviaqatnovlar yo‘lga qo‘yiladi. Bular haqida muntazam ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda yoritib boriladi.

Bundan tashqari, turoperatorlar uchun ham qator yengilliklar yaratilmoqda. Jumladan, olis hududlarda turistlar oqimi kam bo‘lgan hollarda imtiyozlardan foydalanishi mumkin.

Tibbiyot turizmini rivojlantirishga doir hujjatga ko‘ra, qo‘shni davlatlardan davolanish maqsadida kelayotgan bemorlar uchun qator sayyohlik imkoniyatlari yaratiladi.

Yana bir muhim jihat, soha uchun malakali mutaxassislar tayyorlash bilan bog‘liq. Davlatimiz rahbarining yaqinda Farg‘ona viloyatiga tashrifida soha kadrlarini tayyorlash maqsadida qator topshiriqlar berilgan edi. Ana shu topshiriqlar ijrosidan kelib chiqib, qaror loyihasi tayyorlandi. Bu hujjat ham taqdimotda tasdiqlandi.

Qarorga asosan, turizm sohasi bo‘yicha tayyorlanayotgan kadrlar endi amaliyotda ishlash imkoniga ega bo‘ladi. Jumladan, talabalar birinchi bosqichda nazariy bilim olsa, ikkinchi va uchinchi bosqichlarda ko‘proq amaliyot bilan shug‘ullanadi. Ana shu orqali sohadagi kadrlar masalasini yechishga erishiladi.

Yangi o‘quv yilidan boshlab bu borada ham qator yangiliklar mo‘ljallanmoqda. Xususan, turizm va mehmonxona xo‘jaligi sohasida o‘quv dasturlari jahon reytingida birinchi 100 talikka kiruvchi ta’lim muassasalarining tajribasi asosida takomillashtiriladi. Sohada oliy ta’lim to‘rt yillikdan uch yillikka o‘tkaziladi. Talabalarga bir vaqtning o‘zida ixtisosligi bo‘yicha ishlab, kasbiy ko‘nikmalarini bevosita ish joylarida rivojlantirish imkoniyati yaratiladi. Andijon, Buxoro, Samarqand va Urganch davlat universitetlari, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti va “Ipak yo‘li” turizm xalqaro universitetida gidlar tayyorlash kurslari ochiladi.

Soha rivojiga qaratilayotgan e’tibor, berilayotgan qulaylik va imtiyozlar natijasida 2024-yilning birinchi yarim yilligida 3,5 milliondan ortiq chet el fuqarosi sayyoh sifatida O‘zbekistonga kelgan. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 415,6 mingga yoki 13,3 foiz oshgan.

Turizm faoliyati subyektlarini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash, hududlarning sayyohlik salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish, dam olish va turizm uchun shart-sharoitlarni yaxshilash nafaqat iqtisodiyotga, balki aholi bandligi va farovonligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Faqatgina yaratayotgan dastur bilan yangilik qilib bo‘lmaydi. Dasturimiz ishlashi jarayonidagi algoritmlar orqali masalaning yechimi olinadi. Hozirgi kunda o‘rnatilgan tizimlar uchun dasturiy ta’minot ishlab chiqish, cloud xizmatlardan foydalanish muhim masalalardan biridir.

Zamon bilan hamnafas

OLIMLAR DAVRASIGA KIRISH OSON KECHMADI

Xolida PRIMOVA,
Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Samarqand filiali dotsenti, texnika fanlari doktori

Yurtimizda axborot texnologiyalari bozori jadal rivojlanishi barobarida soha mutaxassislariga ehtiyoj tobora oshishi tabiiy. Ilmiy tadqiqotlar, axborot texnologiyalari, startap g‘oyalar, kompyuter savodxonligi... Bugun bu yo‘nalishlarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotganlar orasida xotin-qizlar salmoqli o‘rin egallaydi. AKTni rivojlantirish, barcha sohalarni raqamlashtirish, ushbu jarayonda ayol-qizlar faolligini oshirishga alohida e’tibor qaratilayotgani mening hayotimda ham o‘z izini qoldirdi. Keling, hammasi haqida boshidan hikoya qilib bersam.

Bolalikdan kuchli bo‘lishga majbur edim

Bolaligim boshqalarnikidek quvnoq o‘tgan deya olmayman. Inson bolalik chog‘idanoq imkoniyati cheklangan bo‘lsa, unda ikki karra kuchli bo‘lish majburiyati ustunlik qilarkan. Men ham jamiyatda munosib o‘rnimni topish va sog‘lom tengdoshlarimdan ortda qolmaslik uchun doim harakatda edim. Shuning uchun o‘qishga ko‘p vaqtimni sarflaganman. Chekka bir qishloqda tug‘ilib o‘sganimga qaramay, ota-onam yaxshi o‘qishim, bilim olishim uchun hamma sharoitni yaratib berdi. Kitoblar, o‘quv qurollarim yetarli, dars tayyorlash uchun qulay muhit bo‘lgan.

Muntazam shug‘ullanishlarim besamar ketmadi. Samarqand davlat universitetining amaliy matematika va informatika yo‘nalishiga hujjatlarimni topshirib, uchinchi yil deganda talaba bo‘ldim.

Matematika doim yechim beradi

Matematikaning jozibasi nimada? Bu savolni ko‘p so‘rashadi. Men matematika formulalariga juda qiziqaman. Bir misolning yechimini bitta emas, bir necha formula orqali ishlab chiqish mumkin. O‘nta misolni bir usulda emas, aksincha, bitta misolni o‘nta usulda yechish menga ko‘proq zavq beradi. Bir xil misolni turli usul va formulalarda ishlab chiqish mumkin. Buni hayotga qiyoslaganimda har qanday muammoga yechim borligini ko‘raman. Demak, matematika doim yechim beradi. Yechimi yo‘q, degan tushuncha fanda juda kam uchraydi. Agar yechim mavjud bo‘lmasa, faraz qilish orqali yechim topiladi. Shu bois, muammoga uchragan vaqtimda buning albatta yechimi bor, deya vaziyatdan chiqib ketish yo‘li hamda usulini izlayman. Yechim yo‘q ekan, deb taslim bo‘lmayman. Hattoki kundalik hayotimizda mavjud obyektlar, jarayon va hodisalarni ham matematik formulalar orqali ifodalash mumkinligi ko‘plab sohalarda qo‘l kelib, ehtimoliy muammolarni oldindan aniqlashga imkon beradi. Bu esa matematikaning qanchalik ko‘p qirrali va muhim ahamiyat kasb etishining yaqqol ifodasidir.

2005-yili universitetning bakalavr bosqichini tugallab, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali magistri bo‘ldim. Matematika menga axborot texnologiyalarini chuqur o‘rganishimda asos bo‘ldi. Shu bois, dasturchi bo‘lib shakllanishim qiyin kechmadi. Xavf-xatarni, yer unumdorligini baholash, ishonchlilik darajasini aniqlash, tibbiyotda ko‘z kasalliklari, veterinariyada qoramollarda uchraydigan kasalliklarni tashxislash, poliklinikalar uchun avtomatlashgan patronaj mobil ilovasi kabi iqtisodiy hamda ijtimoiy jihatdan samaradorlikni oshiruvchi dasturlar yaratdim. Dasturlash tillari menda mantiqiy fikrlashni rivojlantirdi.

Matematikada aniq jarayon bilan ishlanadi. Dasturchi esa real jarayonni mantiqiy fikrlab, uni virtual holatda tasavvur qilib olishi muhim. Mantiqiy fikrlash orqali, albatta, aniq formuladan qanday foydalanish kerakligiga javob topa oladi.

Axborot texnologiyalari yordamida virtual olamimni yaratdim

Sohaga kirgach, o‘z olamingizni yarata olasiz. Dasturlash mantiqiy fikrlash va yangicha yondashuvni talab etadi. Bu degani, doim izlanish, o‘rganishda bo‘lishingiz shart. Har kuni bitta yangilikni o‘rganish odatga aylanishi kerak. Odatga aylanmasa, yaxshi mutaxassis bo‘lib yetishish qiyin.

Dasturlashning shaxsan men uchun boshqa sohalardan ajralib turadigan eng muhim jihati jismoniy imkoniyatlaringiz, tashqi ko‘rinishingizning hech qanday ahamiyatga ega emasligida. Istalgan joydan turib, axborot texnologiyalari bilan shug‘ullanish mumkin. Aynan uning yordamida men ham o‘z virtual olamimni yarata oldim.

So‘nggi yillarda shogirdlarim bilan birga veterinariya va qurilish sohasida sun’iy intellektni qo‘llash ustida ilmiy izlanishlar qilyapmiz. Uni qoramollarda uchraydigan kasalliklarni tashxislash va qurilish materiallarini intellektual tanlashda qo‘llayapmiz. Bolalarda kasallik asoratlari darajasini aniqlash hamda ko‘z kasalliklarini tashxislashda shifokor qaror qabul qilishiga yordam beruvchi tizim ishlab chiqish bo‘yicha shug‘ullanyapmiz. Shuningdek, u patronaj mobil ilovasini tibbiyot muassasalarining aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish patronaj bo‘limiga joriy etish, ma’lumotlar bazasini shakllantirish, bemorning tahliliy natijalarini qo‘shish, tashxislash aniqligini oshirish bilan bir qatorda uning salomatligidagi o‘zgarishlarni doimiy kuzatib borishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda sifatli, chidamli va barqaror qurilishga erishishning eng samarali strategiyalaridan biri atrof-muhitga salbiy ta’siri kam bo‘lgan materiallarni tanlash hisoblanadi. Iqtisodiy, texnik, ijtimoiy-madaniy va ekologik omillarni inobatga olib, qurilish materiallarini tanlash algoritmi ishlab chiqildi.

Harakatchan inson qobiliyatini rivojlantira oladi

Axborot texnologiyalari sohasida fan doktori darajasiga erishish oson bo‘lmagan. Ayniqsa, ayollar uchun ilm yo‘li silliq kechmas ekan. Chunki ilm olishning chegarasi yo‘q. Ba’zan vasiylikka olgan farzandimga yetarlicha e’tibor qarata olmagan paytlarim bo‘ldi. Yarim tun, gohida tonggacha ijod qildim, izlandim. Olimlar davrasiga kirish, u yerdagi muhit meni qabul qilishi oson bo‘lmadi. Qiyinchiliklar sababli yozgan dissertatsiya ishimni himoya qilmasdan tashlab ketish istagi ham bo‘ldi. O‘sha vaqtlarda ilmiy rahbarim, texnika fanlari doktori, professor Dilnoz Muhammadiyeva o‘z onamdek yonimda turdi, har bir ishda dalda va ko‘magini ayamadi. Ustozim yordamida 29 yoshimda texnika fanlari nomzodi, 36 yoshimda texnika fanlari doktori ilmiy darajasiga ega bo‘ldim.

Yaxshiyam ilm bilan shug‘ullanibman. Bugun meni O‘zbekistondan tashqarida ham tan olishni boshlashdi. Hindistonning ITEC/SCAAP dasturining Proficiency in English & IT Skills kursida muvaffaqiyatli malaka oshirib keldim.

“International Symposium on Automation, Information and Computing (ISAIC-2021)” xalqaro konferensiyasida ma’ruza qildim. International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT-2021)” xalqaro konferensiyasi hamda IV International Conference On Ensuring Sustainable Development In The Context Of Agriculture, Energy, Ecology And Earth Science (ESDCA2024) xalqaro konferensiyalari uchun berilgan maqolalarga tahririyat a’zosi sifatida taqrizchi etib tayinlandim.

Ba’zi insonlarga tug‘ma qobiliyat beriladi deb o‘ylayman. Lekin harakatchan inson qobiliyatini rivojlantira oladi. Faqat xohishning o‘zi yetarli bo‘lmay, oldiga maqsad qo‘yib, unga harakat qilsa, albatta, muvaffaqiyatga erishadi. Men o‘zimni tug‘ma qobiliyatli deb hisoblamayman. Oilamizda olimlar bo‘lmagan. Lekin menda matematikaga qiziqish va intiluvchanlik kuchli bo‘lgan. Bu xususiyat shaxsiy rivojlanishda muhim omil sanaladi. Shogirdlarimga va farzandimga bu haqda ko‘p aytaman. Shaxsiy rivojlanishning asosiy omili — faqat harakatchanlik. Bunday inson ko‘p narsaga erisha oladi.

Sohada muammolar ham bormi?

Faqatgina yaratayotgan dastur bilan yangilik qilib bo‘lmaydi. Dasturimiz ishlashi jarayonidagi algoritmlar orqali masalaning yechimi olinadi. Hozirgi kunda o‘rnatilgan tizimlar uchun dasturiy ta’minot ishlab chiqish, cloud xizmatlardan foydalanish muhim masalalardan biridir. Lekin ishlab chiqilgan dasturiy ta’minotni qurilmalarga yozish uchun biz ko‘proq virtual laboratoriyalardan foydalanyapmiz yoki texnik ta’minotni boshqa davlatlardan buyurtma asosida olib kelyapmiz. Masalan, turli sohalarda qo‘llash mumkin bo‘lgan robototexnika, ko‘z kasalliklarini tashxislashga xizmat qiluvchi tizimga zarur bo‘ladigan ko‘z to‘r pardasini tasvirga oluvchi apparatlar juda qimmat. Shu qurilmalarni O‘zbekiston hududida ham ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilsa, ilmiy izlanishlarimiz samaradorligi yanada oshgan bo‘lar edi. Zero, tadqiqotlarimiz jahon olimlari izlanishlaridan aslo qolishmaydi.

Yaqin yillarda barcha sohalar raqamlashtirilishi bois, katta hajmli ma’lumotlar bilan ishlashga ehtiyoj paydo bo‘ladi. Bu jarayonda esa cloud texnologiyalar va kvant algoritmlardan foydalanib, parallel protsessorlar bilan ishlash hisobiga aholiga katta tezlikda, qisqa vaqtda xizmat ko‘rsatish tizimlari yo‘lga qo‘yiladi. Qo‘l mehnati, inson omiliga bog‘liq holatlar kamayib, avtomatlashgan instrumental tizimlar, robotlar faoliyati takomillashadi. Axborot texnologiyalari sohasini kun sayin rivojlanayotgan, ham iqtisodiy, ham ijtimoiy jihatdan zamon bilan hamnafas bo‘lishga yordam beruvchi asosiy vosita deb bilaman.

E’tibordan ruhlanib

2024-yil 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni arafasida “Shuhrat” medali bilan taqdirlandim. Davlatimiz rahbari qo‘lidan medal olish nasib etdi. Bu hayotimdagi eng quvonchli voqea bo‘ldi...

Prezidentimiz bilan uchrashgan ondagi hayajonimni tasvirlab berish juda qiyin. Menga mukofotni topshirar ekan, OAV orqali chiqishimni e’tirof etdi. Bunday e’tiborlardan hayratlandim. Mukofot kelgusida o‘z ustimda yanada ko‘proq ishlash, axborot texnologiyalarini boshqa sohalarda qo‘llash, ko‘plab shogirdlar chiqarish mas’uliyatini yukladi.

Kafedra professori sifatida orzularimdan biri oliy ta’limdagi tadqiqot ishlarini amaliyot bilan uyg‘unlashtirish edi. Ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlikda tadqiqot qilinsa, ishimiz yanada samarali bo‘ladi. Biz tadqiqot ishimizning natijasi qanday bo‘lishini nazariy jihatdan bilamiz, lekin ishlab chiqarishda, amaliyotda qo‘llab ko‘rish yanada muhim. Hozir kafedramiz professor-o‘qituvchilari bilan birgalikda ishlab chiqarish korxonalarida xo‘jalik shartnomalarini amalga oshirib kelayotganimiz katta yutuq. Texnouz bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yyapmiz, hamkorlikda kafedra filialini tashkil etishni maqsad qildik, bunda ixtisosliklar bo‘yicha soha korxonasi ehtiyojidan kelib chiqqan holda mutaxassislar tayyorlash, kafedra o‘qituvchilarining amaliy tadqiqotlarini o‘tkazish uchun ularga tashkilotdagi kafedra filialida moddiy-texnik shart-sharoitlarini yaratib berish yo‘lga qo‘yilmoqda.

Shuningdek, to‘qimachilik sanoati bilan shug‘ullanuvchi gilam va gazlama ishlab chiqarish korxonalarida kompyuter grafikasi asosida murakkab naqshlarni avtomatlashtiruvchi dasturiy majmuani amaliyotga qo‘llash borasida kelishuvga erishildi. Tibbiyot sohasida ham ko‘z kasalliklarini tashxislovchi avtomatlashgan tizimning ma’lumotlar bazasini to‘ldirish, testlash jarayonida Respublika ixtisoslashtirilgan ko‘z mikroxirurgiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Samarqand filiali tibbiyot xodimlari amaliy ko‘mak berib kelmoqda. O‘ylaymanki, yaqin yillarda bu ilmiy natijalarimiz amaliy tasdig‘ini topib, aholi sog‘lom turmush tarzining yanada yaxshilanishi, ishlab chiqarishning jadallashuviga hissa qo‘shadi.

Muhokama uchun mavzu

ASOSIY AYBDOR KIM?

Davlat tiliga nisbatan e’tiborsizlik haqida

Yaqinda “So‘g‘diyona” va “Dinamo” futbol jamoalari uchrashuvini samarqandlik bir muxlis bilan yonma-yon o‘tirib tomosha qildim. Tanaffusda suhbatimiz futboldan davlat tiliga e’tibor mavzusiga ko‘chdi.

— Uzoq yillar davlat ishida ishladim, hozir nafaqadaman, — deydi o‘zini Akbar deb tanishtirgan futbol ishqibozi. — Samarqandning “Dinamo” futbol jamoasi ashaddiy muxlisiman. Har bir uchrashuvini o‘yingohda tomosha qilaman. Imkon topib, qo‘shni viloyatlarda bo‘ladigan o‘yinlarga ham boraman. Xabaringiz bo‘lsa, mavsum boshidan “Dinamo” o‘yingohida ta’mirlash ishlari olib borilgani sababli, uy uchrashuvlarini Jizzaxda o‘tkazdi. Shu bahona Jizzaxga bir oyda ikki-uch marta keladigan bo‘ldim. Jizzax shahri bilan yaqindan tanishdim. Tan olish kerak, Jizzax kundan kun obod bo‘lib bormoqda. O‘zim mutaxassis bo‘lganim uchun, qayerga borsam, davlat tiliga e’tibor, shahardagi reklama, e’lon va shiorlardagi yozuvlarga diqqat qarataman. Afsuski, bu borada Samarqandda ham ahvol yaxshi emas. Ammo Jizzaxda davlat tiliga nisbatan e’tiborsizlik yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ko‘plab ko‘chadagi yozuvlar ajnabiy tillarda ekan. Ushbu o‘yingohning ikki kirish tarafiga katta qilib “SOGDIANA” deb yozib qo‘yilgan. Nahotki, shuni “So‘g‘diyona o‘yingohi” deb yozish qiyin bo‘lsa. Bundan tashqari, shahardagi ko‘plab yozuvlarda xatoliklar bor. Jurnalist ekansiz, shu haqda bir maqola yozsangiz bo‘larkan. Zora, nafaqat Jizzax, balki respublikamizdagi ushbu ishga mas’ullarni sergaklantirib, ularning davlat tiliga nisbatan hurmat-ehtiromini uyg‘otsa.

Shu bilan futbol musobaqasining ikkinchi bo‘limi boshlandi. Akbar aka bor e’tiborini futbolga qaratdi. “Dinamo”ning yutqazayotgani sababli, amakining kayfiyati yo‘qligini bilib, men ham jimgina futbol tomosha qildim...

Ushbu suhbat sabab bo‘lib bir kun Jizzax shahridagi asosiy ko‘chadagi tashqi yozuvlarni ko‘zdan kechirdim. Darhaqiqat, shahardagi ko‘plab yozuvlar rus, ingliz yoki biz tushunmaydigan boshqa tillarda ekan. Avvaliga ularni ham rasmga tushirib, ham daftarimga yozib bordim. Qarasam, ajnabiy tillarda yozilgan peshlavhalar, reklama va axborot matnlari, tashqi yozuvlarning ko‘pligidan ularni rasmga tushirishdanu yozishdan charchab qolaman. Yozuvlarning asosiy qismi kirill alifbosida, bir qismi lotinchada, qolgani ingliz tilida. Bu borada jamoat transportlarida ham ahvol yaxshi emasligi ko‘zga tashlandi. Shahar ichida yuradigan ko‘pgina avtobuslar old oynasiga ham “cheriz gorot”, “cheriz stadyon” deb yozib qo‘yishgan. To‘g‘ri, bu ishlarning asosiy aybdori tadbirkorlarimiz. Ammo shahar bedarvoza emaski, ular xohlagan narsalarini yozsa. Agar mutasaddilar ularga to‘g‘ri tushuncha berganda, ishonchim komil, albatta, ular davlat tiliga ehtirom ko‘rsatib, o‘zbekcha yozardi. Mubolag‘a bo‘lmasin, boshqa tillarda yozilgan tashqi yozuvlarning soyasida o‘zbek tilidagi yozuvlar ham uchrab turadi.

Bu, haqiqatan, davlat tiliga nisbatan hurmatsizlik, e’tiborsizlik emasmi? Ehtimol, yozuvlar shu yo‘ldan har kuni o‘tadigan viloyat va shahar kattakonlarining e’tiboridan chetda qolgandir. Axir ularning davlat tiliga e’tibor qaratishdan boshqa ishlari ham ko‘p. Ammo ushbu ishga mas’ullarning-chi?

Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan vazirlik va idoralar, mahalliy davlat hokimliklarida rahbarning ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi lavozimi joriy etilgan. Ularning asosiy vazifalaridan biri ham aynan ko‘chalardagi tashqi yozuvlarni davlat tili qoidalari asosida bo‘lishini ta’minlashdan iborat.

Bu boradagi fikr-mulohazasini bilish uchun avval Jizzax viloyat hokimining davlat tili bo‘yicha maslahatchisi Bahodir Mavlonov qabuliga bordim. Viloyat hokimligida uning mehnat ta’tilida ekanini aytishdi. E’tibor qaratgan-u, vaqti bo‘lmay ta’tildan keyin bu xatoliklarni tuzatishga ahd qilgandir, degan umid bilan u kishini bezovta qilmadim.

To‘g‘risi, Jizzax shahrida ushbu vazifada kim ishlashini bilmasdim. Shu sabab internetdan shahar saytini izladim. Saytning nomida ham “siti” degan inglizcha so‘z bor ekan. Saytga kirib, hafsalam yana pir bo‘ldi. Birinchidan, shahar hokimiyu ikki o‘rinbosaridan tashqari, boshqa o‘rinbosarlar, hokimiyatdagi bo‘limlar, boshqarma va tashkilot rahbarlari haqida ma’lumot yo‘q. Ikkinchidan, saytga joylashtirilgan xabar va maqolalar xatolarga to‘la. Misol uchun, joriy yil 27-iyun kuni e’lon qilingan lotin yozuvidagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sudlarga oid yangi qabul qilingan qaror va farmonlari” nomli xabarda davlatimiz nomini (O’zbekiston) deb xato yozgan. Bundan tashqari, ushbu maqolada yana ko‘plab imloviy xatolar mavjud.

28-iyunda e’lon qilingan “Qonun Ustivorligini Ta’minlash va sud huquq tizimidagi isloxatlar” nomli maqolaning birgina sarlavhasida 6 ta imloviy xatoga yo‘l qo‘yilgan. Shunda beixtiyor xayolimga Umar Xayyomning o‘sha mashhur she’ri keldi:

Men undan o‘zimga doru izlasam,
Netay, tabibimning o‘zi bemor.

Savodsizlik masalasi alohida mavzu. Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi, deganlaridek, ta’lim tizimimiz katta islohotlarga muhtojligi yaqqol ko‘zga tashlanmoqda.

E’tirof etish kerak, keyingi yillarda mamlakatimizda o‘zbek tiliga e’tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Prezidentimizning 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmoni asosida 21-oktabr mamlakatimizda “O‘zbek tili bayrami kuni” sifatida nishonlanib kelinmoqda. Davlatimiz rahbari shaxsan ibrat bo‘lib BMT va boshqa nufuzli xalqaro minbarlarda o‘zbek tilida nutq so‘zlayapti.

Ammo afsus bilan qayd etish kerakki, ko‘pchiligimizda davlat tiliga nisbatan e’tiborsizlik saqlanib qolyapti. Bu mavzu, asosan, o‘zbek tili bayrami — 21 oktyabr va uning arafasida, u ham bo‘lsa hisobot uchun, nomigagina o‘tkaziladigan tadbirlarda so‘zlanadi. Tilimiz mustahkamligi uchun jon kuydirish har birimizning muqaddas burchimiz emasmi?

Mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari ahillikda istiqomat qiladi. Albatta, har kim o‘z ona tilini yaxshi ko‘radi. Ammo shuning barobarida davlat tilini bilishi, uni hurmat qilishi, “Davlat tili haqida”gi qonun talablariga rioya etishi shart.

Shuning uchun aholi, ayniqsa, yoshlar va tadbirkorlar orasida “Davlat tili haqida”gi qonunning mazmun-mohiyati haqida kengroq targ‘ibot va tashviqot ishlarini olib borish kerak.

Umid qilamiz, ushbu viloyat va shahar hokimiyatidagi mas’ullar ham maqolada ko‘tarilgan mavzuga jiddiy yondashadi, kamchiliklarni tuzatadi. Agar ushbu ishlarda ularga Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Yozuvchilar va Jurnalistlar uyushmalari viloyat bo‘limlari, ziyolilar va faol jamoatchilik vakillari ko‘makchi bo‘lsa, nur ustiga nur bo‘lardi...

Farhod NE’MATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Dunyoni faqat ilm bilan zabt etish mumkinligi bugungi kunda hech kimga sir emas.
Ilmni chuqur egallashning yo‘li esa bitta — kitob o‘qish.

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official

KITOB O‘QIYAPMIZ...MI



Dunyoda iforlar ko‘p. Ammo har bir insonning o‘zi yoqtiradigan isi bor. Kimdir gulning xush bo‘yiga shaydo bo‘lsa, yana boshqa birov tandirdan yangi uzilgan nonni yaxshi ko‘radi. Meni esa aytsam, kimdir nokamtarlikka yo‘yar, yana birov unchalik ishonmas, lekin negadir kutubxonadan taralayotgan is o‘ziga tortadi. O‘zimni bir zum osoyishtalik va jimjitlik olamiga tushib qolgandek his qilaman. Xotirjamlik ongu shuurimni qoplab oladi, yettinchi osmonga uchgandek bo‘laman. Xayolimda go‘yoki yillar davomida javonlarda taxlanib turgan bilim bulog‘i ichida qandaydir mo‘jiza bordek. Qachonlardir kutilmaganda varaqlari ochiladi-yu, bir sakrab o‘sha dunyoga sho‘ng‘iyman...



Zebo QOSIMOVA,
jurnalist

Zumrad va Qimmat yashagan o‘sha qishloqqa boraman, sirli sandiqlarni ko‘raman. Ehtimol, Nasriddin Afandi bilan gaplasharman. Ertaklarda yozilganidek, hammani so‘zlariga ishontira oladigan kuchi bormikan uning?!

Xullas, bu — bolalikdagi ushalmaydigan, kitobiy til bilan aytganda, qo‘l yetib bo‘lmas orzularimdan edi. Ehtimol, gaplarimga internet zarrachalari bilan ulg‘ayayotgan bugungi avlod ishonmas... Biroq so‘zlarim haqiqat. Chunki men va tengdoshlarimning o‘quvchilikdagi eng yaxshi sovg‘amiz hozirgina tilga olganim — “Non va oltin”, “Zumrad va Qimmat”, “Nasriddin Afandi”, “Ertaklarning oltin kitobi”, “Ertaklarning kumush kitobi”, “Sariq devni minib”, “Shirin qovunlar mamlakati”, yana... Anvar Obidjonning “Oltin yurakli avtobola”si edi-da...

Yodimda, ota-onam yakshanba kuni bozorga ketayotib, “Nima olib kelaylik?” deb so‘rardi. Shunda 90 foiz holatda hammamiz yaxshi ko‘rgan asarimizni aytardik. To‘g‘ri, barchasini muhayyo qilishardi deb aytolmayman-u, ammo qaytishayotganida ro‘zg‘or uchun zarur narsalar bilan birga sumkada hammamizga atalgan kitoblar ham bo‘lardi. Imkon qadar mutolaa qilishimiz uchun yoshimizga mos kitoblar olib berishardi. Nomlari haliyam esimda: “Olam tinglaydi bizni”, “Mungli ko‘zlar”, “Alvido, bolalik” va hokazo...

Aynan o‘sha lahzalarniyu quvonchdan porlagan ko‘zlarimizni ta’riflab berolmayman, rosti... Bir kuni qizlik uyimga borganimda, taxlanib turgan bolalikdagi javohirlarimni ko‘rib, ko‘zimga yosh keldi. Bolaligimni, allaqachon narigi dunyoga rixlat qilib ketgan ota-onamni, o‘sha tashvishi yo‘q damlarimni ko‘rgandek bo‘ldim go‘yo.

Bularni alohida xotirlayotganimning sababi bor. Ikki oycha avval ustozim maslahati, tavsiyasi bilan ishchi guruh tarkibida vohalardan birining ikki tumaniga bordik. Maqsad kitobxonlik targ‘ibotining joylardagi holatini o‘rganish edi. Hammamizga tanish “Aytsam tilim, aytmasam dilim kuyadi” degan maqol bor. Demak, anglaganingizdek, hozir aytmoqchi bo‘lganlarim — dilni ham, tilni ham kuydirgan o‘sha qo‘shtirnoq ichidagi “voqeliklar”.

Tuman va joy nomini aytmay qo‘yaqolay, navbatdagi manzillarimizdan biri mahalla fuqarolar yig‘ini bo‘ldi. So‘rovnoma to‘ldirayotib, xodimlarning oxirgi o‘qigan kitobi haqida savol beramiz. Mayli, boshqalarni qo‘yaturing, kelajak bunyodkorlari sardorining bergan javobidan bir kulgimiz keldi, bir yig‘lagimiz...

— Oxirgi o‘qigan kitobimmi... Cho‘lponni o‘qiyapman, hozir ham davom ettiryapman — “Ikki eshik orasi”ni.

Ko‘rinishidan chamasi 25 yoshlardagi yigit “hozirjavoblik bilan gapiraman”, deb qovun tushirganini bilmay qoldi.

— Cho‘lponning?.. — hayrat bilan tikilaman.

— O‘tkir Hoshimovningdir, — xijolatdan qutqargan bo‘ladi yonimdagi hamrohim.

— Ha, shunday demoqchiydim o‘zi, shoshib qoldim-da, uzr, — gapini tuzatgan bo‘ladi u.

— Cho‘lponni o‘qiyapman, degandingiz-ku, — deyman gapining rostligiga ishonch hosil qilish uchun muloyimlik bilan. — Qaysi asarini mutolaa qilyapsiz?

— Haligi, anavi... Mingboshi bo‘ladi-ku... Keyin u...

— Videofilmini ko‘rgandirsiz, — deyman so‘zini so‘ziga ulolmay qiynalayotgan yigitni ortiq uyaltirgim kelmay.

— Yo‘o‘q, o‘qiyapman, — deya tan olgisi kelmaydi u.

Hatto nomini ham eslolmagan asarini “o‘qiyapman”, deb bemalol aytayotgan yoshlar yetakchisining harakatlaridan battar taajjubga tushaman.

Mahalla raisi — opamiz esa bizni ko‘p qiynamadi. Kitob o‘qimayotganini tan olib qo‘yaqoldi. Afsus...

Bundan ikki-uch oycha avval “Xabarlar” axborot dasturi uchun “Eng faol kitobxon” tanlovi respublika bosqichi g‘olibi bilan uchrashuv lavhasi matnini yozayotib, ko‘nglimdan bir fikr o‘tgandi.

O‘quvchiligimiz, yanayam aniqrog‘i, xat-savodimiz chiqqan vaqtida ota-onamiz va ustozlarimiz “Kitob o‘qinglar”, deb bizga ko‘p aytardi. Lekin qayta-qayta tayinlab, majburlaganini, buning uchun rag‘batlantirganini eslolmayman. Negaki bunday holat bo‘lmagan-da. Chunki kitob o‘qish orqali bo‘sh vaqtlarimizni ko‘ngilli o‘tkazibgina qolmay, muallif yaratgan qahramonlar bilan yashar, ularga o‘xshagimiz kelar va bunga intilardik. Idealimizga aylanardi ijobiy timsollar. O‘qituvchimiz yoki tengdoshlarimiz hali nomini eshitmagan asarlardan parcha keltirsa, suvga tashna odamdek izlardik. Topsak, “Avval o‘zim o‘qiyman, keyingi navbat seniki”, deya bahslashgan va hattoki janjallashgan paytlarimiz ham bo‘lgan. Bu ertak yoki maqtanish emas, ayni haqiqat.

Yodimda, kichkina opam hududimizdagi kutubxonaga kelgan yangi qissa yoki hikoyani hammadan oldin o‘qib chiqar, keyin shunaqa chiroyli gapirib berardiki, oxirigacha eshitishga sabrim chidamay, qo‘lidan kitobni tortib olardim. Abituriyentligimda esa kechqurun darsliklardan miyam charchab, qo‘limga sevimli hamrohlarimni olib, o‘qishga tutinar va tugatgach, miriqib dam olardim. Hatto bir gal rahmatli onajonim bilib qolib, koyigan va toki oliygohga kirgunimcha kitob o‘qishni taqiqlagan ham edi. Bunga o‘xshash eslaydiganlarim juda ko‘p.

2001-yilmi yoki 2002, aniq yodimda emas. Qashqadaryo viloyatining xotin-qizlar nashri — “Nafosat” gazetasida ustozim, jurnalist Komila Karomova haqida maqola chiqdi. Muallif Sayyora Zoirova o‘sha lavhada Komila opaning turmushga chiqishidan oldin “Ota-onam bir emas, ikki kelinga yetarli sep yiqqan”, degan bo‘lajak kuyovga, ya’ni turmush o‘rtog‘iga “Gapingiz rost bo‘lsa, jahon adabiyoti durdonalarini ham qo‘shtiring, eng yaxshi sarpo — men uchun shu” mazmunida gaplarni aytgani, o‘sha kitoblar chindan seplar bilan birga kelinnikiga yuborilganini yozgandi. Shunda yoshlarga xos qiziqishmi, hayratlanishmi, tafsilotlarni tortinibgina so‘raganimda, ustoz “Rost, bu kitoblar haliyam uyimizning noyob boyligi bo‘lib, xonadonimizni bezab turibdi”, degandi.

Endi bilsam, o‘sha mahallar kelajak va o‘tmishni uyg‘unlashtiruvchi ushbu manbalar tilla taqinchog‘u bugungi ayfon va smartfonlar, noutbuklar, monobloklar o‘rnini bosgan ekan.

Bugun esa... Ko‘p mutolaa qilganlar jahon shohsupalarida yurtimiz sharafini munosib himoya qilib, davlatimiz madhiyasining yangrashiyu bayrog‘ining hilpirashiga sababchi bo‘lgan championlarga tenglashtirilyapti. Ko‘pchilik yillar davomida orzu qilgan mashinani zumda qo‘lga kiritishyapti. Buning uchun Prezidentimizga har qancha minnatdorlik bildirsak arziydi.

Bir jihatdan yaxshi. Ammo, afsuski, tanganing ikkinchi tomoni bo‘lganidek, ayrimlar uchun kitob o‘qishdan maqsad sovg‘a olishga aylanayotgani o‘ta achinarli hol. Nondek aziz javohirotdan va mutolaadek yuksak, sharafli mashg‘ulotdan ham manfaat yo‘lida foydalanishni fojia deyish mumkin.

Dunyoni faqat ilm bilan zabt etish mumkinligi bugungi kunda hech kimga sir emas. Ilmni chuqur egallashning yo‘li esa bitta — kitob o‘qish. Ming afsuski, buni anglab yetmayapmiz. E’tibor bering, yoshlar tushunmayapti, o‘qimayapti demayapman. Chunki ko‘pchilik katta avlod vakillari ham, umuman, O‘QIMAY QO‘YDI. Eng achinarlisi, buni hech bir tortinmay tan ham olyapti.

Deyarli hammamiz shunday bo‘lib qoldik. Uyda ham, yo‘lda ham, ishxonayu mehmonda ham, uy yumushlarini bajarayotganimizda ham yonimizda telefon. Usiz nafas ololmay qolganmiz, xuddiki...

To‘g‘ri, zamon bilan hamnafas yashayapmiz. Lekin robotga aylanib qolmayapmizmi?! Faqat ehtiyojlar uchungina harakatlanayotgandek bo‘lib qolmadikmi? O‘ylab ko‘ring, hatto telefonda sal ko‘proq gapirib yuborgan suhbatdoshimizga “Telegrammda yozishaylik”, deb gapni qoq o‘rtasidan uzamiz... Aka-uka yoxud yaqinlaringizdan biri yurakdagi dardini sizga aytmoqchi, maslahat olmoqchi bo‘lsa, o‘ylab ham o‘tirmay, “SMSda yoz”, deysiz.

Ehtimol, vaqtni qizg‘anayotgandirmiz. Lekin inson bilan yuzma-yuz suhbatlashish, kitob o‘qish, qarama-qarshi o‘tirgancha, bir piyola choy bahonasida olingan taassurotlarni ulashishning zavqi bo‘lakcha-ku...

Maqsadimiz kimgadir aql o‘rgatish, pand-nasihat qilish, o‘zimizni bilimdon ko‘rsatish emas. Aslo. Zero, qanday yashash va nima qilishni har bir insonning o‘zi biladi. Aksariyat odamlarga hayotdan bo‘lak hech kim muallimlik qilolmaydi. Shunchaki aytmoqchi bo‘lganimiz, hammamizni tarbiyalaydigan, yaxshilikka undaydigan, fikrimizni tiniqlashtiradigan, zeriktirmaydigan, boringki, vazifalarini aytib tugatolmaydigan beminnat, sadoqatli do‘stimiz — KITOBga bo‘lgan “munosabatimiz” va “xatti-harakatimiz” hamda sovuqqonligimiz bilan umr yo‘llarimizdagi shamchiroqni o‘zimiz o‘chirib qo‘ymayapmizmi? Ehtimol, oramizda mehr-oqibatning yo‘qolishiyu oilalar o‘rtasidagi ajrimlar soni ko‘payishi, jinoyatlar, ko‘ngil og‘ritishlarning ortishiga, ruhshunoslar safining kengayishiga, faqat zarurat bo‘lsagina bir-birimizni yo‘qlayotganimizga ham mutolaadan uzoqlashganimiz sababdir...

Niyatim, aynan mana shu tan olgimiz kelmagan haqiqatni bir ozgina eslatib qo‘yish, xolos. Xulosa chiqarish esa har galgidek O‘ZINGIZDAN!



Ko‘zgu

IJTIMOIY TARMOQLARNING IJTIMOIY MANZARASI

(Felyeton)

Internet sahifalari, ijtimoiy tarmoqlar, turli tashkilot va muassasalarning rasmiy sayti juda faollashib borayotgani ko‘zni ham, ko‘ngilni ham quvontirmoqda. Bu hammaga o‘z fikrini, qarashlarini, nuqtayi nazarini aytish uchun juda erkin maydon vazifasini o‘tamoqda. Biroq keyingi paytlarda bu erkinlik mohiyati odam o‘zi tushungan-tushunmagan mavzularga bemalol burun tiqishi, o‘rinlimi yoki o‘rinsiz istagan gapini, hatto haqoratomuz so‘zlarini ham yozishidan iborat bo‘lib qoldi. Videolarni aytmaysizmi...

Bir sartarosh o‘shqirib, mijozning sochini butkul olib tashlagan, bir juvon bolasini kaltaklaganini kameraga tushirib, shu lavhani xorijga ketgan eriga yuborgan. Eri esa darrov uni ijtimoiy tarmoqqa joylagan. Bir-birini tushunish, muammoni hal etish o‘rniga oilaning ikki kattasining qilgan ishini, ko‘rsatgan namunasini qarang-a. Yoshlarning mushtlashayotgani, to‘y-hashamda pachkalab pullarni goh tomga chiqib, goh mashina oynasidan sochayotgani, kimlar ularni olqishlayotgani... Faqat shu pul sochayotganlar nimadan zavq olayotganini tushunolmay hayronmiz-da... Xullas, zerikish yo‘q, rang-barang lavhalar. Kamiga dori-darmon, kiyim-kechak reklamalari. Ehhe, ko‘rib, o‘qib “dil yayraydi”, asablar “dam oladi”.

Bunda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchi har bir kishining saviyasi, savodi, madaniyati, ma’naviy qiyofasi shundoq ko‘rinib turadiki, “ijodkor”ligidan hayratlanmay iloji yo‘q. Bu toifadan ruhlanib, o‘rnak olib, boshqalar ham nimalarnidir suratga olyapti, yozyapti, chizyapti.

Fan-texnika, innovatsiya taraqqiyoti tufayli bu maydon qo‘lingiz tagida turibdi. Tahririyatlarga borib yurmaysiz, qachon e’lon qilisharkan, qoralamamning saviyasini qanday baholasharkan deb ham bosh qotirmaysiz. Shartta ikki og‘iz fikr yozsangiz, telefonda nimanidir tasvirga olib joylasangiz,

lop etib ijtimoiy tarmoq va saytlarda chiqib turibdi-da. Yozgan qoralamalaringiz, olgan suratlaringizni ko‘rib, zo‘r, aqlli gap aytgandek quvonib ketasiz. Aniqrog‘i, o‘zingizni ancha zukko, hozirjavob his etasiz. “Qoyillatib gap aytib qo‘ydim, hamma hayron qolsa kerak”, degan o‘yingizdan jo‘shib ketasiz.

Metro, avtobuslarda o‘tirib ketayotgan ayrim yoshlar tik turgan yoshi kattalar, ayollar ko‘ziga tik qarashga “uyalib”, telefonda shularni tomosha qilgancha o‘zini o‘zi band qilib ketadi.

Ijtimoiy tarmoqlar, saytlardan shu yo‘sinda foydalanayotgan ishqibozlar, “ijodkorlar”ning qanchalar savodli yozayotgani, qanaqa fikr-mulohaza bildirayotganiga e’tibor bermayotgani ham alohida mavzu. Masalan, “Xokimlar kayakko karyapti... Svet uchib kolsa kayirga yuorish kerak... Blik ovga kelila” kabi gaplarning to‘g‘ri yozilganini tekshirishga, o‘rinli yoki o‘rinsiz ekanini mulohaza qilishga vaqti ham, xat-savodi ham, umuman, saviyasi ham yo‘qligini mardlarcha bildirib turibdi. Qolaversa, ko‘pchilik bunga e’tibor ham berayotgani yo‘q, to‘g‘rimi? Eng muhimi, xalqning ma’naviyati, aql-idroki in’ikosi deb ta’riflangan ona tilida yozyapti-ku.

Ayrim telekanallar titrida uchrayotgan imloviy xatolar (“Yangi yilni nishollaymiz”, “Ijotkor do‘stlar” kabi) bilan ham bulardan o‘tib keta olmaydi. Chunki ularda ba’zan, ijtimoiy tarmoqlarda esa muntazam va ommaviy ko‘rinishda aks etib turibdi.

Bu borada ko‘pchilikning o‘zbek tilida shunday erkin, istagan ko‘rinishda yozayotganining o‘zini oqlaydigan muhim sabablaridan biri — aholi kitob, bosma nashrlarni o‘qimay, “qimmatli vaqti”ni tejayotganida. Kitob yoki gazeta-jurnal uchun pul tejab, bir necha soatlik dang‘illama to‘y-hasham, tug‘ilgan kun, hech bo‘lmasa, ulfatlar bilan “o‘ta muhim gaplar” aytiladigan gap-gashtak uchun sarflayotgani tafakkurning o‘zgarganidan dalolat beradi. Qaysi tomonga ekanining ahamiyati yo‘q.

Eng ta’sirlisi, bugungi bolalar, yoshlar telefonga bor mehrini, vaqtini ajratgan. Ular ayrim saviyasizlar yozayotgan gap-so‘zlarni o‘qiydi, o‘rganadi, taqlid qiladi. Turli videolavhalarni miriqib ko‘radi. Shu ma’noda, kelajak avlodga savodsizlik uchun keng imkoniyatlar yaratilyapti. Axir ular shundoq ham maktablarda muallimlarning xatoni ko‘rsatishi, tuzatishi, tanbehidan bezib ketgan.

Undan ko‘ra, “Baxa 01”, “Davron svarshik”, “Nigina LY” kabi bir-biridan cirli taxalluslar bilan ijod qilayotgan “ustozlari”dan o‘rganganlari yaxshi-da. Qolaversa, siz ham bolangiz (nevarangiz)ni ovutib, ta’lim-tarbiya berishdek g‘alvadan qutqarayotgani uchun telefonni qo‘shqo‘llab tutqazasiz. Axir shu bir parcha matoh ham tarbiya, ham ta’lim berishga ulguradi. Muhimi, bularning bari vijdoningizni qiynash tugul, asabingizga ham tegmaydi. Ana shunday sovuqqonlik, beparvolik bilan kuzatishda davom etavering.

Lekin bir gapni aytib qo‘yish kerak. Ijtimoiy tarmoqning yana bir o‘ziga xos jihati bor. Masalan, ilg‘or ishtirokchilar “layk” — rag‘bat olishni birinchi galdagi maqsad deb biladi. Siz ham nimalar yozayotganingizdan, boshqalar qanday munosabat bildirganidan ko‘ra, layklar soniga ko‘proq qiziqing. Shunda yanada mashhur bo‘lasiz. Ma’naviyat, ma’rifat, savod deganlari bir gap bo‘lar. Nima dedingiz?..

Rustam BOYTO‘RA,
jurnalist

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 1666.
42368 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Bekqul Egamqulov
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

O‘zA yakuni — 23:40 Topshirildi — 00:10